Ikkinchi qismda xayotning mohiyati, tashkil topishi darajalari, yerda xayotning rivojlanishi haqidagi g`oyalar, qarashlar nazariyalar bilan tanishtiriladi.

Uchinchi qism – mikroevolyutsiya haqidagi ta`limot evolyutsiya mexanizmlarini oshib beradi. Unda evolyutsiyaning genetik va ekologik asoslari, sun`iy tanlash, yashash ushun kurash, tabiiy tanlanish, tur strukturasi va mezonlari, tur xosil bo`lishi yo`llari tahlil qilinadi.

To`rtinchi qism- makroevolyutsiya muamolarida filogenetik guruxlar evolyutsiyasiga xos qonuniyatlar: ontogenez evolyutsiyasi; organ va funktsiya evolyutsiyasi; evolyutsion progress xodisalari; odam evolyutsiyasi masalalari; evolyutsiya tugrisidagi xilma-xil farazlar, nazariyalar muxokama kqilinadi.

«Evolyutsion nazariya» fanini o`rganishda bir qator asosiy tushunchalar va terminlar mazmunini tugri tushunish talab etiladi. Ulardan eng muximi «evolyutsiya» terminidir. «Evolyutsiya» suzi birinchi marotaba 1762 yilda (latinsha evolutio) shveytsariya tabiatshunosi SH.Bonnening embriologik ishlarida shaklanib borish ma`nosida o`llanilgan. Hozirgi vaqtda «evolyutsiya» terminini tarixiy taraiyot ma`nosini anglatadi. Evolyutsiya terminini turli fan sohalarida qo`llaniladi, masalan koinot evolyutsiyasi, geologik evolyutsiya, kimyoviy evolyutsiya, biologik evolyutsiya va bochalar.

Ushbu fan doirasida asosan biologik evolyutsiya qonuniyatlari taxlil qilinadi. Biologik evolyutsiya- tirik tabiatning tarixiy rivojlanishi bo`lib ma`lum darajada kaytmas jarayondir. Biologik evolyutsiya populyatsiyalar genetik tarkibining uzgarib borishi, moslanishlarning paydo bulishi, turlarning vujudga kelishi va yuolib borishi, biogeotsenozlar va hatto biosferaning to`laligisha uzgarib borishi bilan sodir buladi. Mikroevolyutsiya- tushunchasi tur ichida sodir buladigan evolyutsiya jarayonlarini ifodalaydi. «Makroevolyutsiya» tushunchasi turdan yuori turuvshi taksonomik guruxlar evolyutsiyasidan iborat. Kupinsha makroevolyutsiya tushunchasi bilan yerdagi butun evolyutsion jarayonni ifodalashda foydalaniladi. Evolyutsion nazariyaga oid tushuncha va terminlar juda xilma-xil bo`lib, ularning mohiyati maxsus mavzularda oshib beriladi.

2.«Evolutsion nazariya» fanining asosiy prinsiplari va o`rganish usullari.

Evolutsion nazariyaning ikki asosiy prinsipini alohida qayd etish mumkin:

2) Tarixiylik prinsipi; 2) Aktualizm prinsipi. Tarixiylik prinsipiga muvofik o`tgan davrlarda organik olamda sodir bo`lgan jarayonlarni o`rganish asosida hozirgi tirik organizmlarning tuzqilishi, xilma-xilligi va kelib shiishi anilanadi. Aktualizm prinsipiga ko`ra, xozirgi mavjud tirik organizmlarning xilma-xilligini o`rganish asosida organik olamning tarixiy rivojlanishi haqida muloxaza yuritiladi.

Evolutsiya jarayonini o`rganish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin 1) Mikroevolyutsiya jarayonini o`rganish usullari; 2) Makroevolyutsiyani o`rganish usullari.

Miroevolyutsiya jarayonini o`rganish usullariga populyatsion usullar; eksperyemental o`yish, jumladan ,genetik, gibridologik, ekologik yashash ushun kurashni va tabbiy tanlanishni o`rganishga doir tajribalar va bochalar. Hozirgi vatda eng ko`p ullaniladigan usullar qatoriga genetik monitoring usullarini kiritish xam mumkin.

Makroevolyutsiyani o`rganish usullariga paleontologik, iyosiy-morfologik, kiyosiy anatomik, iyosiy embriologik, biokimyoviy biogeografik, molekulyar biologik, molekulyar genetik, parazitologik, etologik, fiziologik va boshqa shu kabilarni kiritishi

mumkin. Evolyutsion nazariya o`zining xususiy tadkikot usullari bilan birga umumbiologik va boshqa fanlarga oid usullardan xam keng foydalaniladi.

Ayniksa, molekulyar evolyutsiya mexanizmlarini o`rganishda, molekulyar biologiya, molekulyar genetika, gen injenyeriyasi, biokimyoviy va boshqa fizik-kimyoviy usullardan xam foydalaniladi. Masalan, turli organizmlarning molekulari va genetik mexanizmlarini taoslash ularning kon-karindoshligi va kelib shikishi tugrisida ishonshli ma`lumot beradi.

3.«Evoluytsion nazariya»ning boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

Evoluytsion nazariya umumbiologik fanlar qatoriga kiritiladi. Bu fan mazmuniga ko`ra sintetik mohiyatga ega. U biologik fanlarida, jumladan, botanika, zoologiya, anatomiya, embriologiya, tsitologiya, gistologiya, fiziologiya, biogeografiya, biokimyoy, genetika, paleontologiya, ekologiya, selektsiya, mikrobioloiya, parazitologiya, shuningdek, bir kqator ishlo xujaligiga oid fanlarda to`plangan ma`lumotlarga asoslab ish yuritiladi. Evoluytsion nazariya xususiy biologiya fanlarida to`plangan ma`lumotlarini xulosalab, umumbiologik, kqonuniyatlarni kashf etadi. Bu qonuniyatlar biologiya fanlari ushun nazariy asos bo`lib xizmat iladi. Evoluytsion nazariya, immunologiya va boshqa tibbiyot fanlari bilan xam uzviy bogli. Masalan: odam bakterial infektsiyalar bilan umrida fakat bir marta kasallaniladi, lekin virusli infektsiyalar bilan ayta-ayta kasallanishi mumkin. Bu faktni viruslarning juda tez (nisbatan) evolyutsiyalanishi bilan tushuntirish mumkin. Odatda sodda tuzqilishli, kuyi organizmlarda evolyutsiya tezligi nisbatan ansha yukori, murakab tuzqilishli yuksak organizmlarda esa evolyutsiya tezligi ansha sekinlik bilan sodir buladi. Evoluytsion nazariya fani aynisa, genetika fani bilan uzviy bog`liqdir. Evoluytsion ta`limot va genetika fanlarining uygunlashuvidan evolyutsiyaning sintetik nazariyasi vujudga keldi. Botanika, aynisa, sistematika fanlarida populyatsiya, tur, tabiiy va sun`iy sistemalarni asoslashda evolyutsion yondashuv alohida axamyatga ega.

4.Evoluytsion nazariyaning asosiy muamolari va ahamiyati.

Evoluytsion nazariyaning asosiy muamolariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Xayotning mohiyati, paydo bulishi va rivojlanishi haqidagi muammolar.
- Evolyutsion jarayonning shart sharoitlarini o`rganish muamolari.
- Evolyutsiya jarayonining harakatlantiruvshi kuchlarini o`rganish muamolari.
- Turlarni va tur paydo bo`lishi jarayonlarning o`rganish muamolari.
- Evolyutsion progress yoki yuksalish qonuniyatlarini o`rganish muamolari.
- Odamning paydo bo`lishi va rivojlanishining o`ziga xos qonuniyatlarini o`rganish muamolari.
- Evolyutsiya jarayonlarini bo`sharqish va undan inson manfaatlari ushun to`gri foydalanish muamolari.

Evolyutsion nazariyaning axamiyatini bosha biologiya fanlarining rivojlanichida, uning amaliyotga tatbi etqilishda, jumladan, tirik organizmlar xilma-xilligini salab kolish, zararli organizmlarda arshi biologik kurash usullarini ishlab shiishda, tibbiyotda yuumli kasalliklarga arshi kurashda va bosha shu kabilarda ko`rish mumkin.

2-Ma`ruza.

Mavzu: Yerda hayotning rivojlanishi. (2 soat)

Reja:

1. Yerda xayotning paydo bo`lishi haqidagi nazariyalar.
2. I. Oparin nazariyasi.
3. Yer geoxronologiyasi haqida tushuncha.
4. O`simliklar va hayvonlar evolyutsiyasining asosiy yo`llari.

1. Yerda xayot paydo bo`lishi haqidagi nazariyalar

17-18 asrlarda hayotning o`z-o`zidan paydo bo`lishi to`grisidagi fikrlar bo`lib, ayrim olimlar bu fikrni tajribada isbotlashga ham urinib ko`rdilar. Bu fikrning

noto`grqiligini birinchi bo`lib Italiya olimi Franshesko Redi tajribada isbotlab byerdi. Tirik organizmlarning, hatto eng kichik tirik organizmlarning o`lik tabiatdan o`z-o`zidan xosil bo`lmasligini frantsuz olimi Lui Pastyer har tomonlama isbotlab byerdi. SHundan keyin hayot mangu deb targib iluvshi farazlar vujudga keldi. Masalan, Kosmozoylar va panspyermiya farazlari bunga misol bo`la oladi. Kosmozoylar farazini birinchi marta 1865 yilda nemis vrashi Rixtyer tomonidan ishlab chiqildi va Tomson hamda Gelmgolts tomonidan kuvvatlandi. Bu farazga ko`ra, Koinotda hayot mangu bo`lib, uning zarrachalari bir sayyoradan ikkinchisiga ko`shib yuradi. Mikroskopik ko`rinichidagi hayot zarrachalari meteoritlarga yopishib, ular vositasida Yerga tushgan va hayot rivojlangan. Paspzyermiya farazi 1907 yilda shved olimi Arrenius tomonidan ilgari surildi. Bu faraz kosmozoylar farazi bilan mazmunan bir xil, ammo hayot zarrachalarining yerga etib kelishi yo`li bilan far iladi.

Arrenius fikriga ko`ra, hayot zarralari meteoritlar vositasida taralmaydi, shunki meteoritlar izib ketishi tufayli hayot ko`rtaklari nobud bo`ladi. Hayot zarrachalari uyoda ajralgan yoruglik nurlarining bosimi ta`sirida Yerga taralgan.

Hayotning paydo bo`lishi haqidagi abiogen faraz 1924 yilda A.M.Oparin tomonidan, 1928 yilda Xoldyin tomonidan ishlab chiqildi. Bu faraz Yerga xayot koinotdan kelmaganligi, balki uzoq yillar davomida notirik tabiatdan paydo bo`lgan va rivojlangan, deb tushuntiradi. Hozirgi vatda uyosh sistemasida Yerdan bosha planetalarda hayotning mavjudligini tasdilanmadi. Olingan ma`lumotlar bosha planetalarga hayot yo`ligini ko`rsatdi. Bosha yulduz sistemalari haqidagi ma`lumotlar olishning texnik imoniyatlari xali yaratilgan emas.

2. A.I.Oparin nazariyasi.

Bu nazariyaga ko`ra, Yerda hayot notirik tabiatdan asta-sekin uzo yillar davomida vujudga kelgan . Dastlab Yer ansha izigan holatda bo`lgan, uning sovib borii jarayonida ultirabinafsha va bosha kosmik nurlar, elektr zaryadlari ta`sirida ammiak, suv, formaldegid va bosha shu kabi moddalardan dastlabki organik moddalar xosil

bo`lgan. Bu fikrni amerika olimi Millyer tajribada isbotladi. U shisha kolbaga o`sha davrda Yer atmosferasida ko`pro ushrgan deb taxmin qilingan ammiak, metan, vodorod va sv bo`gini solib, 80⁰S temperaturada maxsus o`rnatilgan elektrodlar orali elektr zaryadi berilsa, suyulikning rangi o`zgarib aminokislota va unga yain organik birikmalar xosil bo`lishini aniladi. Keyinshalik dastlabki anorganik aralashma tarkibini o`zgartirib ham Millyer tajribasini tasdilovshi ma`lumotlar olindi. Dastlabki oldbiologik birikmalardan Yer harorati 70⁰S ga yainlashishi bilan yuoripolimyer birikmalar (osillar, uglevodlar, lipidlar, nuklein kislotalar) xosil bo`la boshlagan. SHu taria, yer sathida suv buglaridan suv suyulik holatiga o`tgan va unda ya`ni dastlabki okeanda organik birikmalar to`planib, organik bulyon xosil bo`ladi. Organik birikmalardan suvli muhitda kaotsyervat tomshilar vujudga kelgan. Kaotsyervat tomshilar diametri 1-500 mkm bo`lgan avat «membrana» bilan o`ralgan. Kaotsyervat tomshilarning o`z-o`zini xosil ila olgani yashab olgan, ular tashi muhit bilan moddalar almashinuvida bo`lib, yiriklashib, keyin tomshilarga parchalangan. Kaotsyervat tomshilardan protobiontlar vujudga kelgan. Dastlabki muvozanatlashgan protobiontlar avtokatalitik, nuklein kislotalardan iborat kaotsyervat tomshilar shaklida bo`lgan, deb faraz qilinadi. Ularda nuklein kislotalar va osillarning o`shqilishi yuz byergan. Keyingi evolyutsion jarayonda moddalar almashinuvi jarayonida uygunlashtiruvshi «mexanizm» vujudga kelgan. Protobiontlar getyerotrof yo`l bilan tayyor organik modalar bilan «ozilangan». Prtobiontlardan dastlabki bir xujayrali organizmlar – prokariotlar vujudga kelgan. Dastlabki prokariotlardan eukariotlar kelib shian. SHu taria, Yerda hayot shakllari vujudga kelishi

3. Yer geoxronologiyasi haqida tushuncha.

Yerning geologik tarixiy yirik vat oralilariga – eralarga, eralar esa – davrlarga davrlar esa- asrlarga bo`linadi. Bunday bo`linish Yerda yuz byergan geologik o`zgarishlar bilan bogli. Har bir era va davrning davomiyligi yoki geologik atamlarning yoshi bir necha usullar yordamida anilanadi. Eng ko`p o`llaniladigan usul radioaktiv uranning yarim emirqilishi davriga ko`ra, xosil bo`lgan o`rgoshin va geliyning massa nisbatlariga arab aniqlashga asoslangan. Birmunsha yosh jinslarning yoshi radioaktiv

uglyerod C_{14} midoriga ko`ra anilanadi. Mollyuskalar shiganigidagi $CaSO_3$ tarkibiga kiruvshi kislorod izotoplarini o`rganish hatto qadimgi tur yashagan suv haroratini aniqlash imkoniyatini beradi. Yer Sharqi atmlarining magnit shizilarini magnit utblariga boglab o`rganish materiklarning turli davrlardagi holatini aniqlash imkoniyatini beradi. Yer evolyutsiyasi quyidagi era va davrlarga bo`linadi: 1) Arxey erasi. Yerda hayotning paydo bo`lishi, prokariotlar rivoji, bakteriyalar va ko`k yashil suv o`tlari hukmronligi. 2) Protyerozoy erasi. Eukariotlar, jumladan, ko`p xujayrali o`simliklar va hayvonlarning paydo bo`lishi va rivoji. 3) Paleozoy erasi. Kembriy, ordovik, silur, devon, karbon va pyerm davrlariga bo`linadi. Kembriy davrida umo`rtasizlar rivojlangan, yuksak o`simliklar paydo bo`lgan. Ordovik davrida dastlabki xordalilar, umurtkalilar – jagsizlar paydo bo`lgan. Silur davrida o`simliklar va hayvonlar urulikka shian. Devon davrida balilar hukmronligi kuzatilgan. Hasharotlar va amfibiyalar shakllanshan, plaunalar, moxlar va paparotnik o`rmonlari paydo bo`lgan. Karbon davrida o`rmonlar rivojlangan, amfibiyalar taraiy etgan, uSharq hasharotlar va reptqiliyalar paydo bo`lgan. Pyerm davrida oshi uruglilar paydo bo`lgan, reptqiliyalar taralgan. 4) Mezazoy erasi. Trias va bo`r davrlariga bo`linadi. Trias davrida reptqiliyalar ko`paygan, oshi uruglilar taralgan, dastlabki sut emizuvshilar paydo bo`lgan YUra davrida reptqiliyalar hukmronligi kuzatilgan. Yopiq uruglilar va qushlar paydo bo`lgan. Bo`r davrida gulli o`simliklar va hasharotlar rivojlangan. Reptiliyalar qirila boshlagan. 5) Kaynazoy erasi paleogen, neogen va to`rtlamshi davrlarga bo`linadi. Paleogen davri oligotsen, eotsen, paliotsen asrlariga bo`linadi. Neogen davri pliotsen va miotsen asrlariga, to`rtlamshi davr esa esa galotsen pleytotsen asrlariga ajratiladi. Neogen davrida hozirgi zamon hayvonot va o`simlik dunyosi shakllangan. To`rtlamshi davrda odam avlodi paydo bo`lgan.

4. O`simliklar va hayvonlar evolyutsiyasining asosiy yo`llari.

Biologik evolyutsiyada dastlabki sodda prokariotlardan murakabro tuzilgan prokariotlar simbiogenez yo`li bilan vujudga kelgan. Yer yuzidagi birinchi fotosintez iluvshi organizmlar sianeyalar hisoblanadi. Sianeyalarning paydo bo`lishi bilan tirik olam o`simlik va hayvonot yo`nalichida riaojlanishga ajralgan. O`simliklar

evolyutsiyasining asosiy yullari. O`simliklar evolyutsiyasi dastlabki fotosintezlovshi organizmlar tsianeyalardan boshlangan. Dastlabki prokariotlar va tsianeyalardan simbiogenoz yo`li bilan dastlabki o`simliklar shakllangan. Bu jarayon arxey erasida yuz bergan. Proterozoy erasida yashil va boshqa suvo`tlari rivojlangan. urulikda esa bir xujayrali organizmlar – bakteriyalar, tsianeyalar hamda abiotik omillar ta`sirida emir qilishi va tuproq xosil bo`lish jarayonlari sodir bo`lgan. Poleozoy erasining silur davrida o`simliklar urulikka shian, psilofitlar paydo bo`lgan. Suvda esa suv tubiga birikib o`sadigan yashil va unqir suvo`tlari, suv atlamida esa diatom, tillarang, izil va boshqa suvo`tlari rivojlangan. O`simliklar evolyutsiyasining dastlabki bosishlaridayo avtotrof va getyerotrof o`simliklar mavjud bo`lgan. Silur davrida urulikda psilofitlar rivojlangan. Psilofitlar tanasi vegetativ organlarga bo`linmagan. urulikda o`simliklar evolyutsiyasining dastlabki bosishlarida arxegonial formalar (moxsimonlar, paparotniksimonlar, oshi uruglilar) vujudga kelgan. YOpi uruglilar qadimgi oshi urugli o`simliklardan kelib shian. qadimgi yopi uruglilar magnoliyadoshlar bilan ko`prok yainro. YOpi uruglilarning dastlabki vatani tropik mamlakatlardir. O`simliklar evolyutsiyasining asosiy xususiyatlari: 1) Gaploidiyadan diploidiyaga o`tish; 2) Jinsiy ko`payishning takomilashuvi, ishki va o`sh uruglanishga o`tish; 3) Tananing organlarga tabaqalashuvi; 4) SHanglanish va uruglar taralishini ixtisoslashuvi.

Hayvonot olamining evolyutsiyasi. Arxey erasi oxirida bir xujayrali organizmlardan ko`p xujayrali organizmlar shakllangan. Proterozoy va paleozoy erasida dengizda umo`rtasiz hayvonlar rivojlangan (jumladan korallar, molyuskalar). Silur davrida havo bilan nafas oluvshi hayvonlar paydo bo`lgan. Devon davrida ikkiyolama nafas oluvshi, panjaanotli va nursimon anotli balilar rivojlangan. Nursimon anotli balilardan hozirgi suyakli balilar panjaanotli balilardan dastlabki amfibiyalar stegotsellar shakllangan. Bu davrda hasharotlar ham paydo bo`lgan.

Toshko`mir davrida sudralib yuruvshilar vujudga kelgan. Pyerm davrida primitiv reptqiliyalardan pelikozavrlar rivojlanadi, ulardan esa keyingi davrlarda terapsid, undan esa sut emizuvshilar rivojlangan. YUra davrida reptqiliyalarning bir tarmogidan arxeopteriks, ulardan esa ushlar rivojlangan. Mezazoy erasida sudralib yuruvshilardan dengiz reptqiliyalari (ixtiozavrlar, pleziozavrlar), havoda ptyerodaktlar, urulikda

gigant dinozavrlar taralgan. Kaynazoy erasida hasharotlar, ushlar va sut emizuvshilar rivojlanadi. Hayvonlar evolyutsiyasida quyidagi asosiy rivojlanish yo`nalishlarini ko`rsatish mumkin: 1) Ko`p xujayraliklarning paydo bo`lishi va organlarning tabaqalashuvi; 2) qattiq skeletning paydo bo`lishi; 3) Markaziy nerv sistemasining rivojlanishi; 4) Hayvonlarning bir qator evolyutsion tarmolarida sotsial xususiyatlarning rivojlanishi.

3-Ma`ruza:

Mavzu: Tabiat haqidagi ilk tasavvurlarning shakllanishi (2 soat).

Reja:

1. Qadimgi Sharq mamlakatlari (Misr,Xindiston,Xitoy,Markaziy Osiyo),Yunoniston va Rimda tabiat to`grisidagi tasavvurlarning rivojlanishi.
2. O`rta asrlarda Markaziy Osiyoda tabiat to`grisidagi tasavvurlarning rivojlanishi.
3. Preformizm va epigenez oqimlarining vujudga kelishi va ular o`rtasidagi kurash.
4. «Mavjudotlar narvoni» haqidagi tasavvurlar. Transformizm va kreatsioonizm o`rtasidagi kurash.
5. Transformizm oqimining paydo bo`lishi. Transformizm va kreatsioonizm o`rtasidagi kurash.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

«Arfist o`shigi»; «Hayot kitobi»; «Avesto»; moddiy olamning tashkil topish elementlari;atomistik nazariya;entelexiya;preformizm, epigenez, anpmalkulistlar, ovistlar; «Mavjudotlar narvoni; Transformizm, kreatsioonizm, teleologiya.

1. Qadimgi Sharq mamlakatlari (Misr, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo) Yunoniston Rimda tabiat to`g`risidagi tasavvurlarning rivojlanishi.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida olamning moddiyligi tabiatdagi hodisalar va tirik mavjudotlar to`grisida turlicha qarashlar, g`oyalar va oimlar mavjud bo`lgan. qadimgi dunyoda turli xil diniy qarashlar hukmronlik qilgan. Suuningdek ateistik mohiyatga ega bo`lgan g`oyalar va oimlar ham keng taralgan. Masalan, qadimgi Mirza «Arfist qo`shigi» asarida ateistik g`oyalar ilgari surilgan. Qadimgi Hindistonda eramizdan oldingi VIII asrda yozilgan «Hayot kitobi» asarida olamning moddiyligi va uning 5 ta elementi (yer,suv, havo, olov, efir) dan iboratligi haqida fikr yuritilgan. Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi 3000 yilning oxiri 2000 yilning boshlarida yaratilgan «Avesto» kitobi mashhur bo`lgan. Unda Markaziy Osiyo va unga shegaradosh mamlakatlarning o`simlik va hayvonot dunyosi, tibbiyot sohasi, hamda tibbiy resurslari haqida iziari ma`lumotlar keltirilgan. qadimgi Hindistondagi miloddan oldingi VI-V asrlarda yaratilgan «Maxobxorot» asarida tabiatdagi xilma-xil hodisalar, o`simlik va hayvonot dunyosi, hamda tabiat ekologiyasi masalalari yoritilgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida o`simliklar va hayvonot olamini tavsiflash, klassifikatsiyalash, madaniylashtirish, xonakilashtirish, selektsiya ishlari, o`simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini aniqlash sohasida ishlar qilinib, asarlar yaratildi. Qadimgi Xitoy ishlo xo`jaligida ekinlarni sugorish, o`gitlash va almashlab ekish joriy qilingan. Otlar va manzarali o`simliklarning zot va navlari tanlash yo`li bilan shiarilgan. qadimgi Xitoy mutafakkiri Djouli (eramizdan oldingi II-I asrlar) o`simliklarni 5 guruxga:- danaklilar, o`zolilar, Sharqbatlilar yotab o`suvshilar va butalarga bo`lgan. Hayvonlarni ham 5 guruxga: jun bilan oplanganlar, pat bilan oplanganlar, zirx bilan oplanganlar, tangacha bilan oplanganlar va shigano bilan oplanganlarga bo`lgan. qadimgi Xitoy meditsinasida ninaterapitya, kuydirish yuli bilan davolash o`lanilgan. Bu usullar hozir ham o`z ahamiyatini yuotgani yu.

Tabiat to`grisidagi tasavvurlar qadimgi YUnoniston va Rimda ham ansha rivojlangan. Geraklit (eramizdan oldin 530-470y) butun borlini olov, havo, suv va yerning bir-biriga aylanishi natijasi deb baholagan. Fales hayotni suvdan, Aneksimen dastlabki loyadan, Anaksimandr namlikdan vujudga kelgan deydi. Levkip va Demokrit (era.oldin. 500-370y) atomistik nazariya ilgari so`rganlar. Empedokl (yer.old. V asr) tabiatni 4 element (yer,suv, havo) dan iboratligini e`tirof etgan. Gippokrat (e.old.460-477y) irsiyatning moddiy asosiga ega ekanligi to`grisida yozib oldirilgan.

Aristotel (e.o.384-322 y) «Hayvonlar tarixi», «Hayvonlar tanasining qismlari haqida», Hayvonlarning paydo bo`lishi haqida» nomli asarlarida o`zining tabiiy-ilmiy qarashlarini bayon etgan. U hayvonlarning 500 turini tavsiflagan havonlarni onlilar va onsizlarga ajratgan.

Aristotel materiya- moddiy, lekin harakatdan mahrum, passiv deb baholagan, materiyaga entelexiya ushilgandan keyin faollashdi. Entelexiya- ma`lum masadlarni ko`zlovshi sabab, rivojlanishga olib keluvshi dastlabki kushdir. qadimgi Rim mutafakkiri Lukretsiy Kar tabiat doqimiy rivojlanishda ekanligini e`tirof etgan. Kay Pliniy «Tabiiy tarix» nomli asarda hayvonlar va o`simliklarni klassifikatsiyalagan, o`simliklarning tuzqilishi, sistematikasi va o`stirishga doir ma`lumotlar keltirilgan.

Umuman olganda, qadimgi dunyo mutafakkirlarining asarlarida evolyutsion tushunchalar va qoidalar sodda va boshlangish shaklda ifodalangan.

2. O`rta asrlarda Markaziy Osiyoda tabiat tugrisidagi tasavvurlarning rivojlanishi.

O`rta asrlarda Markaziy Osiyoda tabiat to`grisida tasavvurlar uyidagi mutafakkirlarning asarlarida o`z ifodasini topgan: Axmad ibn Nasr Jayxoniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Byeruniy, Abu Ali ibn Sino, Zaxriddin Muxammad Bobur va bochalar. Axmad ibn Nasr Jayxoniy (970-912) Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy o`simliklari va hayvonot dunyosi haqida iziarli ma`lumotlar to`plagan. Unda o`simlik va hayvonlarning taralishi, va tibbiyotdagi ahamyati yoritilgan. Abu Nasr Farobiy

(873-950) tabiatshunoslik sohasidagi yirik olim sanalgan. Odam va hayvon o`xshashliklari, tabiatdagi tanlanishi va sun`iy tanlash e`tirof etilgan, hayvonot dunyosini fikrlovshi va fikrlamaydigan xillarga ajratilgan. Abu Rayxon Byeruniy tabiatni 5ta element: havo,suv, tupro, olov va bo`shlidan iboratligini ta`kidlagan. Byeruniy «Hindiston» va «Geodeziya» nomli asarlarida yer Sharqining g`arbiy qismida katta urulik mavjudligini evropaliklardan taxminan 450 yillar oldin aytib byergan. Byerniy fikriga ko`ra, yer yuzida o`simlik va hayvonlarning ko`payishi ushun Sharoit cheklangan, shuning ushun tirik mavjudotlar o`rtasidagi yashash va ko`payish ushun kurash boradi. Bu jarayon ko`pro moslashgan mavjudotlarning salanib olishiga olib keladi. Byeruniy asarlarida Markaziy Osiyo, Yeron, Hindiston va Afgoniston o`simlik va hayvonot dunyosi haqida keng amrovli ma`lumotlar keltirilgan. Byeruniy odamlarning rangi, iyofasi, odob ahloiga oid belgilarning shakllanichida ham irsiyat, ham Sharoitning roli borligini e`tirof etgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) zaminasining yirik tabiblaridan biri bo`lib, biologiyada oid juda ko`p ma`lumotlar to`plagan. Uning «Tib qonunlari» asari 5 ta kitobdan bo`lib, unda odam tanasining ishki tuzqilishi; turli kasaliklarning kelib shiishi sabablari, 800 orti dorilar va ularning organizmga ta`siri: jarrohlik masalalari; turli xil zaharlar va ularga arshi ishlatiladigan moddalar haqida ma`lumotlar keltirilgan. Olim yuumli kasalliklarni ko`zga ko`rinmaydigan juda kichik tirik mavjudotlar ko`zgatishini e`tirof etgan. U yer yuzining geologik o`zgartirishlar haqida ham fikr bildirilgan,o`simlik va hayvonlar hamda odam o`rtasidagi o`xshashliklar va ularning hayotiy xususiyatlari haqida yozib oldirilgan. Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530) asarlarida Markaziy Osiyo, Afgoniston, va Hindiston o`simlik va hayvonot dunyosi to`grisida ma`lumotlar keltirilgan. U ko`pgina o`simlik va hayvonlarni tavsiflab byergan. U hayvonlarni 4 guruxga; urulik hayvonlari, parrandalar, suv va suv yainida yashovshi ushlar, suv hayvonlariga bo`lgan.

3..Preformizm va epigenez oqimlarining vujudga kelishi va ular o`rtasidagi kurash.

16-17 asrlarda zoologiya,anatomiya, embriologiya fanlari rivojlandi va organizmlarning individual rivojlanishini o`rganish sohasida epigenez va preformizm

oimlarning vujudga kelishiga olib keladi. Epigenez oqimiga ingliz olimi Garvey tomonidan asos solindi. Bu olim ushlar va sut emizuvshilarning embrional rivojlanishini o`rganib ushlar hamda sut emizuvshi hayvonlarning tuxumdan rivojlanishini kashf etdi. Epigenez oqimi g`oyalari Mopyeryui, Byuffon va ingliz olimi Nidgem tomonidan keng targib q qilindi.

17 -asr oxirida A.Levenguk tomonidanmikroskopda spyermatazoidning kashf etilishi preformizmning rivojlanishiga sabab bo`ldi. Preformizm oqimi odam organizmi juda kichik animalkullar ko`rinichida, oldindan shakllangan holda tuxum xujayra yoki spyermatazoidga joylab uyilgan, undan etuk organizm oddiy o`shish yuli bilan xosil bo`ladi degan g`oyaga asoslangan. Animalkullar iloxiy ruh tomonidan oldindan yaratilgan va momo havo organizmiga joylab o`yilgan deb hisoblashgan. Preformizm rivojlanishni inkor etadi. Preformizmni SH.Bonne, A.Levenguk, YA.Svammyerdam, M.Malpigi, R.de Graf, Vallisnyeri, Gallyer va bosha shu kabi olimlar himoya ilgan. Preformistlar ikki oimga bo`lingan: 1) Animalkulistlar; 2)Ovistlar. Animalkulistlar dastlabki shakllangan mitti organizm-animalkullar spyermatazoid ichida joylashgan, irsiyatni ota organizm belgilaydi, ona organizm animalkullar o`sadigan joy rolini o`ynaydi- deb hisoblaganlar. Ovistlar esa dastlabki mitti organizm tuxum xujayra ichida joylashgan, irsiyatni ona organizmi belgilaydi, spyermatazoid mitti shakllangan organizmning o`shishi ushun trtki vazifasini bajaradi xolos, deb hisoblaganlar. Preformizm rivojlanishini inkor etishi bilan kreationsizm pozitsiyasida turadi.

Epigenez oqimi rivojlanishni e`tirof etish bilan fan taraiyotida ijobiy rol o`ynaydi, ammo rivojlanishning anday amalga oshishini tushuntirishda bir qator kamshqiliklarga yul o`yildi. Organizm vujudga kelishi haqida bunday arama-arshi fikrlar epigenez va preformizm oimlari o`rtasidagi keskin munozaralarga olib keladi. Epigenez tarafdorlari bolalarning ham otaga ham onaga o`xshashligini pyerfomistlarga arshi dalil sifatida keltirdilar. Preformistlar o`z navbatida, sho`lo, o`li yo` odamlardan o`li bor bolalarning tugqilishini epigenez tarafdorlariga arshi kurashda dalil sifatida foydalandilar. Umuman, epigenez va preformizm oimlari

tarafdorlari o`rtasidagi munozara fan tarixida ijobiy rol o`ynaydi, embriologiya sohasida shuur ilmiy tadqiqotlarining olib borilishiga olib keldi, fan rivojiga turkiya berdi, olimlarni yangidan-yangi kashfiyotlarga undadi.

4. «Mavjudotlar norvoni» haqidagi tasavvurlar.

«Mavjudotlar norvoni» haqidagi tasavvurlar Aristotel ishlaridayoq vujudga kelgan bo`lsada, 18 asrga kelib kengroq targ`ib qilina boshladi. Ayniqsa preformizm oqimi tarafdorlari tabiatdagi «tartiblik» va «oldindan belgilangan uyg`unlik» g`oyalarni «joylanish nazariyasi» asosida targ`ib qilishga urindilar. Bu nazariyaga ko`ra, yaratilayotgan davridayoq dastlabki urg`ochi organizmlarda keyingi barsha avlodlarning embrioni «joylab qo`yilgan». Masalan ovist, Italiya olimi A. Vallisneri barsha o`tgan va kelgusida vujudga keladigan avlodlarning embrionlari momo xavo organizmiga joylab qo`yilgan deb hisoblagan. Gallyer esa hatto bu embrionlar soni 200 mqiliardga yaqin deb hisoblab chiqqan.

Ovist SH. Bonne o`zining «Mavjudotlar norvoni» ni tuzib chiqdi . «Mavjudotlar norvoni» nozik materiyadan boshlanib olov, suv, yer, toshlar va suv o`tlar lishayniklar orqali organik olam bilan tutashgan so`ngra o`simliklar, hasharotlar , umo`rtasiz va umurtqali hayvonlar odamga tomon davom etgan.

Ayrim «Mavjudotlar norvonlarida» notirik jqismlaridan boshlanib, hatto ilohiy mavjudotlargacha joylashtirilgan. Ovistlar joylanish nazariyasini asoslashda shira hasharotlarning partenogenez yo`li bilan urug`lanmagan tuxum xujayradan rivojlanishini dalil qqilib keltirganlar. «Mavjudotlar norvoni»- da pog`onalarning har biri alohida, bir-biriga bog`liq bo`lmagan holda qaraladi,ya`ni pog`onalardagi organizmlarning bir-biridan kelib-chiqishi va qon-qarindoshligini aks ettirmaydi. «Mavjudotlar norvoni» tabiatda turli darajadagi murakkabligidagi mavjudotlarning borligigina aks ettiradi. SH.Bonning fikriga ko`ra, «Mavjudotlar norvoni» dagi pog`onalar soni sheksiz bo`lib, ularning barshasini aniqlashga xali bizning bqilimlarimiz yetarli emas, norvonning quyi pog`onasidan yuqori pog`onalariga tomon

uzluksiz o`tish mavjud hamda barsha mavjudotlarni bir tarzida joylashtirish mumkin. Keyinshalik uning tarafdorlari jiddiy tanqidga ushradi. «Mavjudotlar norvoni» xaqidagi g`oyalar keyinshalik evolyutsion g`oyalar rivojlanishda tarixiy ahamiyatga ega bo`ldi, deb xisoblash mumkin.

5.Transformizm oqimining paydo bo`lishi. Transformizm va kreationsizm o`rtasidagi kurash.

17 asr oxirlariga kelib, turlarning o`zgaruvchanligi haqidagi g`oyalar paydo bo`la boshladi. O`simliklar va hayvonlar turlari o`zgarishi mumkin, deb ta`kidlovshi oim fan tarixida transformizm oqimi deb atalgan. Transformizm haqiqiy evolyutsion ta`limot emas, balki uning boshlangishidir. Transformistlar turlarning o`zgarib borishini e`tirof etish bilan araganlar hamda inkor etishgan. Turlar o`zgarib borar ekan demak, turlar mavhum tushuncha bulib oladi, tabiatda konkret individlar mavjud deb o`tirishgan. Transformistlar organizmning individual rivojlanishini, hesh anday oldindan shakllangan mitti organizm bo`lmasligi, organizm dastlabki tuxumdan o`zgarish bilan rivojlanishi haqidagi g`oyalarni uvvatladilar. Transformizm evolyutsion g`oyalarning rivojlanichida ijobiy rol o`ynaydi. Transformizm g`oyalari 18 asrning ikkinchi yarmida aynisa Rossiyada keng tarkaldi. Rossiyada transformizm g`oyalari M.V.Lomonosov, K.T.Volf, A.N.Radishev, P.S.Pallas kabi olimlar rivojlantirdilar. 19 asr oxiriga kelib transformizm g`oyalarining Angliyada rivojlanishda E.Darvinning xizmatlari katta. Frantsiyada Byuffon, Golbax, Gelovitsey, Didro, Sent-Ilyer va boshqa olimlar transformizm tarafdorlari edi. Bu davrda transformizm va kreationsizm o`rtasidagi kurash keskinlashdi. Kreationsizm turlari o`zgarmaydi, ular ilohiy kush tomonidan anday yaratilgan bo`lsa shundayligisha oladi deb o`tiruvshi oimdir. 19 asr boshlarida transformizm va kreationsizm o`rtasidagi kurash yanada keskinlashdi. Bunga 1830 yilda Frantsiya fanlar akademiyasida transformist Sent Ilyer va kreationsist J.Kyuve o`rtasidagi munozara misol bo`la oladi. Sent-Ilyer shogirdlari bilan umu`rtasiz va umu`rtali hayvonlarning har bir plan asosida tuzilganligi g`oyasini ilgari surdilar. J.Kyuve esa unga hayvonlarning 4 plan asosida tuzilganligi haqidagi nazariyasini arshi o`ydi. Sent-Ilyer tomonidan misollarning noulay tanlanganligi Kyuvening yuori

ijtimoiy mavzuga egaligi va arqatorligi tufayli bu munozarada J.Kyuve golib shidi. Bu esa transform g'oyalarning taralishi va evolyutsionizmning rivojlanishiga bir ansha vatlar to'sinlik ildi.

4-Ma`ruza:

Mavzu: Evolyutsion ta`limotning rivojlanishi (J.B.Lamarkning evolyutsion ta`limoti) (2 soat).

Reja:

1. J.B.Lamark xayoti va asarlari.
2. Lamarkning falsafiy va umumbiologik qarashlari.
3. Lamark ta'limotida tur, tabiiy tizimlar va turlar o'zgaruvshanligi.

1. J.B.Lamark hayoti va asarlari.

Jan Batist Lamark (1744—1829) buyuk fransuz tabiatshunosi, birinchi evolyutsion ta'limotni yaratgan olimdir. U oldin o'z faoliyatini harbiy xizmatga bag'ishladi. Biroq keyinshalik, kasalligi tufayli iste'foga shiqib, tabiiy fanlar bilan shug'ullana boshladi. Lamarkning yoshlik yillari fransuz burjua revolyutsiyasiga tayyorgarlik davriga to'g'ri keldi. Bu vaziyat, albatta, uning dunyoqarashiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1772—1776 yillari Lamark Parijdagi meditsina fakultetida o'qidi. U yoshlik yillari fizika, kimyo, geologiya, tabiiy geografiya, fiziologiya va ayniqsa, botanika bilan qiziqdi. Oqibatda 1778 yilda uning ush tomli « *Fransiya o'simliklari* » nomli asari chop etildi. Bu asar olimlar orasida diqqat-e'tiborga sazovor bo'ldi va uni ilmiy jamoatshqilikka ma'lum qildi hamda yirik botaniklar safidan o'rin olishiga imkon yaratdi. Shu sababli u 1779 yqili Fransiya Fanlar akademiyasining botanika kafedrasida ad'yutant unvoniga ega bo'ldi.

1781 —1782 yillarda Lamark Byuffonning o'g'li bilan birga Yevropa bo'ylab sayohat qildi hamda o'sha davrdagi yirik botaniklar bilan ushrashdi. Ma'lumki, o'sha davrda umurtqasiz hayvonlar kam o'rganilgan va juda ko'p shalkashliklar mavjud edi. Zamon taqozosi bilan 50 yoshli Lamark yangi mutaxassislikni egallab, umurtqasiz hayvonlar sohasida tadqiqot ishlarini boshladi va ajoyib muvaffaqiyatlarga yerishdi.

Umurtqasiz hayvonlarni o'rganish va sinflash natijasida u 1815—1822 yillar orasida « *Umurtqasiz hayvonlarning tabiiy tarixi* » nomli 7 tomli nodir asar yozdi. «Umurtqasizlar» va «biologiya» terminlarini fanga birinchi bo'lib Lamark kiritdi.

Lamarkning evolyutsiyaga doir fikrlari « *Zoologiyaga kirish* » va « *Zoo-logiya falsafasi* » nomli asarlarida bayon etilgan. 1797 yilgacha Lamark turlar o'zgarmaydi, degan g'oyaga ishongan bo'lsa-da, keyinshalik o'z tadqiqotlariga asoslanib, yuqoridagi fikrga tanqidiy ko'z bilan qaragan va evolyutsion ta'limotni targ'ib qilgan. Lamark zamondoshlari uning ta'limotini yetarli baholamadilar. Kyuve unga nisbatan ashaddiy muxolif sifatida yo'l tutdi. Lekin turli qiyinshqiliklar va xo'rliklarga qaramay, Lamark fan sohasidagi tadqiqot ishlarini mardonavor davom ettirdi va turlarning o'zgarishini oldindan aytib byerdi. U 1820 yqili ko'r bo'lib qoladi. Dunyoga tanilgan yirik olim bo'lishiga qaramay, o'ta qashshoqlikda hayot keshirib, 1829 yqili vafot etadi.

2.Lamarkning falsafiy va umumbiologik qarashlari

Buyuk fransuz materialistlarining g'oyalari Lamarkning falsafiy qarashlariga ta'sir ko'rsatdi. U falsafaning asosiy masalasini hal etayotganda materiya birlamshi, ong esa uning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Lekin bu masalalar-ni yeshayotganda Lamark izshil emasligi ko'zga yaqqol tashlandi.

Lamark o'z falsafiy qarashlari bilan XVIII asrda Fransiyada tarqalgan deizm oqimiga mansub edi. Deizm materia-lizm bilan idealizm o'rtasidagi oqimdir. Deistlar, bir tomondan, dini tanqid qilib, tabiatdagi barsha hodisalar tabiiy qonunlar asosida sodir bo'ladi desalar, ikkinchi tomondan, xudoni olamning dastlabki sababshisi sifatida tan oladilar. Ularning qayd etishisha, xudo olamni yaratgandan keyin, tabiat ishlariga aralashmaydi, tabiat yaratuvshining oldindan belgilab berilgan tabiiy qonunlari asosida rivojlanadi va o'zgaradi. Deizmga asoslangan Lamark materialistik tushunchalarni ba'zan deistik tasavvurlar bilan niqoblagan holda rivojlantirdi. Uning fikriga ko'ra, barsha borliq aso-sida materiya va tabiat yotadi, materiya haddan tashqari mayda zarrachalar atomlardan tashkil topgan passiv, harakatdan mahrum. Lamarkning umumiy biologik qarashlariga ko'ra, tirik mavjudotlar anorganik jiqismlardan bir qancha sifat belgilari bilan tubdan farq qiladi. Tiriklikning xilma-xil vakillari, hatto, eng oddiy ham bir-biridan farq qiladigan qqismlardan, aksinsha, anorganik jiqismlar esa bir xil massadan ham, har xil massadan ham tashkil topgan bo'lishi mumkin, lekin muayyan shaklga ega emas, tirik jiqismlar esa ma'lum shaklga ega bo'ladi. Tashqi Sharoit organik va anorganik tabiatga turlicha ta'sir ko'rsatadi: anorganik tabiatni yemiradi, organik formalarini esa quvvatlab, ularning tuzqilishini saqlaydi. Anorganik massaning kattalashuvi, o'sishi uning tashqi yuzasiga yangi qqismlar qo'shqilishi hisobiga bo'l-sa, organizmning kattalashuvi esa moddalarning o'zlashtir qilishi va organizm tarkibiga kirishi tufayli ro'y beradi. Anorganik tabiat oziqlanishga muhtoj emas, organizmlarning yashashi ushun esa oziq bo'lishi Shart. Embriyoning rivojlani-shi, nobud bo'lishi tirik tabiatga xos, o'lik tabiatda esa bun-day hodisalar ushramaydi. Binobarin, o'lik tabiat bilan tirik tabiat o'rtasida keskin farq bor. Lamark fikrisha, dastlabki sodda tirik formalar o'lik tabiatdan o'z-o'zidan paydo bo'lish tufayli vujudga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Lamark insoniyat tarixida birinchi bo'lib organik olamining tarixiy rivojlanishi haqidagi masalani atroflisha o'rganib, uni ko'p jihatdan hal etgan olimdir. Uning ta'limotida evolyutsion nazariyaga bog'liq ko'p masalalar qamrab olingan. Turlarning realligi, o'zgaruvshanligi, organizmlarga tashqi muhitning

ta'siri, evolyutsiya jarayonida organizm ishki xossalarning ahamiyati, evolyutsiya jarayonining yo`nalishlari va evolyutsiyani harakatlantiruvchi kuchlar, irsiyat va ongning organizmlar tarixiy rivojlanishidagi roli kabilar «Zoologiya falsafasi» va keyingi asarlarida asosiy masala bo'lgan. Bu masalalar ko'pinsha to'g'ri hal qilinmagan bo'lsada, lekin ular naqadar ko'pligining o'zi Lamark nihoyatda zo'r qobqiliyatli tabiatshunos va nazariyasi bo'lganligidan dalolat beradi.

3. Lamark ta'limotida tur, tabiiy tizimlar va turlar o'zgaruvshanligi.

Lamarkning asosiy maqsadi tabiat hodisalarini o'zaro bog'liq holda, ya'ni ularning haqiqiy tartibini ifodalaydigan tabiiy munosabatlarni o'rganishdan iborat bo'lgan. Sun'iy ravishda tuzilgan sistemalar esa tabiatni o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatgan, xolos. Tabiatdagi haqiqiy tartibni kashf etish deganda, Lamark organizmlar qon-qarindoshligini ifodalovchi genetik munosabatni, genealogik klassifikatsiyani tushunadi. Organizmlar orasidagi genetik munosabat qancha uzoq bo'lsa, ular o'rtasidagi umumiylik ham shunsha kam bo'ladi., Organizmlar tashqi tomondan ko'p yoki oz o'xshashligiga qarab turlar, avlodlar, turkumlar, sinflarga birlashtiriladi. Bunday usulda guruhlash, albatta, organizmlarni o'rganishi bilan bog'liq bo'lsa-da, tabiiy holatni aks ettirmaydi, shu sababli ham bu tarzda guruhlash sun'iy va Shartli hisoblanadi. Lamark fikrisha, sinf, turkum, avlod, tur kabi sistematik kategoriyalar sun'iy, real emas. Tabiatda faqat individlar, shaxslar real, xolos.

Lamark hayvonot olamidagi tabiiy tartibni aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va shu sababli organizmlarning qon-qarindoshligiga asoslangan genealogik klassifikatsiyani ilgari so'rgan. Agar tabiatda turli sinflar, turkumlar, oilalar o'rtasida keskin shegara bo'lmasa, tabiiyki, hamisha tur orasida ham shegarani topish qiyin. Shunga ko'ra, ba'zan tabiatshunos olimlar bir-biriga yaqin turlar shegara-sini aniqlashda qiyinshqilikka dush keladilar. Masalan, lishayniklar, ituzum, geran, tungi kapalaklar, pashsha, kuya, yaydoqshilar, uzuntumshuqlilarning bir-biriga yaqin turlari

o'rtasiga keskin shegara qo'yib bo'lmaydi. Bu qiyinshqilik muayyan turlarga kiradigan individlar o'zgarichidan, turlar, tur xillari o'rtasida oraliq formalar bo'lichidan, turlar doqimiy harakatda va rivojlanishda ekanligidan dalolat beradi. Turlar o'zgarganligi sababli tabiatda faqat ko'z ilg'amaydigan oraliq formalarga ega qator individlar mavjud. Turlar orasida ba'zan uzqilish bo'lishini Lamark to'plangan materiallarning kamligi bilan izohlaydi.

Tur xillari, kenja turlarning mavjudligi ham turlar-ning doqimiy emasligidan, ularning o'zgaruvshanligidan dalolat beradi. Lamark fikriga ko'ra, tabiatda turlar juda sekinlik bilan o'zgaradi. Shu sababli ham uni kuzatish qiyin, inson turlarning o'zgarish jarayonini emas, balki natijasini bi-ladi, xolos. Lamark turlarning o'zgarmasligi haqidagi fikr noto'g'rqiligini isbotlash maqsadida inson umri juda qisqa, turlarning o'zgarishi esa uzoq muddatli jarayon, deb uqtiradi.

Turlar o'zgarichida vaqt asosiy omil sifatida muhim ahamiyat ga ega. Biroq Lamark turlar doqimiy, ular orasida keskin shegara bor, degan kreasionistik tushunchaning noto'g'rqiligini isbotlashni asosiy maqsad qqilib qo'ygan bo'lsa-da, lekin bu muammoni hal etishda metafizik qarashlardan to'liq uzoqlasha olmadi. U tabiatda haqiqatan ham turlar o'rtasida real shegara borligini tushuntirish o'rniga bunday reallikni inkor etdi. Uning fikrisha, tabiatda individlar nobud bo'ladi, lekin turlarning tabiiy o'limi yuz byermaydi. Ular muhit Sharoitiga muvofiq o'zgaradi, xolos.

Lamark turlarning o'zgaruvshanligini qayd etish bilan birga, bu o'zgarishning sabablarini, evolyusiya jarayonini harakatlantiruvshi kuchlarni tushuntirishga intildi. U organizmlarni sinflash ustida ishlar ekan, tuzqilishiga qarab ularni tartib bilan joylashtirish mumkinligini aytgan. Lamark fikrisha, barsha o'simliklar bilan hayvonlar azaldan doqimiy bo'lmagan, balki ma'lum vaqtda rivojlangan. Hayot materiyaning muayyan bir tashkiloti va xarakteridan kelib shiqqan xossadan iborat. Birinchi sodda organizmlar tiriklikka xos xususiyatlarga ega bo'lmagan. Birlamshi organizmlar hayotiy xususiyatlarga ega bo'lishi ushun ular tanasiga tashqi muhitda keng tarqalgan «flyuidlar» (moddiy zarrachalar) kirib, ularga organizm sifatini byerishi zarur. Lamark

fikrisha, tabiatning rivojlanishi hamisha sodda tirik jiqismlarning paydo bo'li-shidan boshlangan. Binobarin, uning rivojlanish yo'li sod-dadan murakkabga, tubandan yuksakka tomon borgan.

Tirik mavjudotlar tuzqilishining murakkablik formasiga qarab, tabiatda ma'lum bir bosqich — pog'ona bor. Lamark uni gradasiya deb atagan. Gradatsiya prinsipi umumiy biologik ahamiyatga ega bo'lib, evolyusiya jarayonining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Gradatsiya prinsipi, Lamark fikrisha, sinflar va boshqa yirik taksonomik guruhlarini bir-biriga taqqosla-ganda ayniqsa ko'zga yaqqol tashlanadi. Yangi paydo bo'lgan har bir sinf rivojlanishdagi yangi bir qadam bo'lib, ilgarigi sinfga nisbatan ansha yuksak yangi tuzqilishdan iborat. Sinfdan kichik takson (turkum, oila, avlod, tur) larda gradatsiyani aniqlash mumkin emas. Tashqi muhit ta'sirida sinf ichida gradatsiya buziladi.

Tuzqilish murakkabligini ifodalovshi pog'ona — gradatsiya g'oyasi yangi emas. U XVIII asrda keng tarqalgan «mavjudotlar narvoni» haqidagi mulohaza bilan uzviy bog'liqdir. Biroq Lamark ta'limotida bu nazariya tamomila o'zgacha ma'no kasb etgan. U birinchi marta har qanday murakkab forma o'ziga nisbatan sodda tuzilgan formadan izshillik bilan rivojlanishini ta'kidladi hamda pog'ona tushunchasiga tarixiy rivojlanish tatbiq etdi. Lamarkning gradatsiyali rivojlanish haqidagi ta'limotiga uning deistik qarashlari katta ta'sir ko'rsatdi. U organizmlarning gradatsiyali rivojlanishini muhitdan mustaqil bo'lgan ishki intqilishlarga bog'liq holda tushuntirdi hamda hayvonlarning ma'lum maqsad tomon asta-sekin murakkablashuvi yaratuvshi tomonidan oldindan belgilab berilgan, deb uqtirdi.

Ma'lumki, hayvonlarning gradatsiyali murakkablashuvga tomon «ishki intqilishi», «ishki maqsadi» to'g'risidagi Lamark mulohazalari avtogenetik, teleologik tushunchadan boshqa narsa emas edi. Binobarin, Lamark dunyoqarashidagi idealistik g'oya gradasiyali rivojlanish ta'limotida ayniqsa namoyon bo'ldi. Shunga qaramay, uning bu ta'limoti tabiiy sistema tuzish sohasida bir qadam ilgariga siljish bo'ldi. Shunki u birinchi bo'lib infuzoriyalar, halqalilar, o'rgimshaksimonlar, qisqish-

baqasimonlar sinfini alohida ajratdi. Shuningdek, ignate-rqililar poliplardan, mo`rtaoyoqlilar mollyuskalardan ajra-tildi.

Agar gradatsiyali rivojlanish prinsipiga muvofiq, organizmlar doim soddadan murakkablashish tomonga takomilla-Sharq ekan, u holda murakkab tuzilgan hayvonlar bilan sodda hayvonlarning hozirgi vaqtda mavjudligini qanday tushuntirish mumkin?

Lamarkning ta'kidlashisha, tuban organizmlar o'ziga o'xshash tuban organizmlarning urshichidan emas, balki murakkab o'lik moddaga «nozik suyuqliklar» (flyuidlar)ning ta'sir etishi bilan o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin ekan. Flyuidlarning mavjudligi haqidagi tasavvurlar o'sha davrlarda keng tarqalgan edi. Bunday tasavvurlarga ko'ra, issiqlik, magnit va elektr hodisalari ham shu singari, «issiqlik», «magnit» va «elektr» flyuidlari tufayli vujudga keladi. Organizm yashayotgan muhitda ham flyuidlar ko'plab ushraydi. Lamark tasavvuriga ko'ra, ular tirik mavjudotlar tanasiga o'ng'aylik bilan kiradi va aylanib yurib, organlarda hamda butun organizmda barsha hayotiy jarayonlarni yuzaga shiqaradi. Bunday tasavvurlar Lamark flyuidlar harakatidan hayot sabablarini izlaganligidan dalolat beradi.

Tabiatda gradasiya hamma vaqt to'g'ri amalga oshavermaydi Organizmlarga tashqi muhit ta'sir qqilib, ularning rivojlanish yo'nalishini o'zgartirib turadi. Lamark bu fikrni ko'p misollarda isbotlashga harakat qildi. Faraz qilaylik, tabiat faqat suv hayvonlarini yaratgan va bu hayvonlar tamo-mila bir xil Sharoitda (tarkibi bir, o'zgarmas harorat va shuqurlikdagi suvda) yashagan bo'lsa, bu vaqtda biz ideal gradatsiyani ko'rgan bo'lur edik. Haqiqatda esa suvda bir xil va o'zgarmas Sharoit bo'lmaydi. Suv muhiti tekshirilsa, shushuk, sho'r (dengiz suvi), oqmaydigan, oqadigan, sayoz, shuqur, issish va sovuq suvlar borligi ma'lum. Xilma-xil Sharoitda yashadigan va gradasiyaning bir pog'onasiga mansub bo'lgan organizmlar tashqi Sharoit ta'sirida o'zgarishi, ayrim hollarda esa tanib bo'lmas darajaga aylanishi mumkin. Shunonshi, nam o't-doqda o'sayotgan biror o'simlikning urug'i quruq joyga tushib qolsa, u bir necha bo'g'indan keyin asta-sekin o'zgarishi, keyingi bo'g'inlarda esa keskin farq qiladigan shaklga aylanishi, oqi-batda botaniklar uni yangi tur sifatida qabul qilishi mumkin. Tashqi muhitning, xususan, iqlim, hayot Sharoitining uzoq vaqt davomida

o'zgarishi hayvonlarning ham o'zgarishiga sabab bo'ladi. Tekis joyda tez shopishga moslashgan hayvon molxona-da yashashga majbur etildi, deb faraz qilaylik. Yangi Sharoit-da u semirib ketadi, kuchini va shaqqonligini yo'qotadi. 5—6 yil qafasda asralgan qush ozod qqilinsa, yerkinlikdagi boshqa qushlar kabi usha olmaydi. Bularning hammasi Sharoit oz-ozdan o'zgarishining ta'siri natijasidir. Agar o'zgargan Sharoit bir necha bo'g'in davomida ta'sir etsa va unga iqlim, oziq hamda muhit boshqa Sharoitining o'zgarishi ham qo'shilsa, u holda tamomila o'zgargan organizmlar vujudga keladi.

Tashqi muhit organizmlarga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ta'sirlanish va harakatlanish organizmlarning muhitga bo'lgan munosabatini aniqlashda asosiy o'rin egallaydi. Lamark muhit ta'siriga javob reaksiyasiga qarab, barsha organizmlarni 3 guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga o'simliklar kiritqilib, ular ta'sirlanish va harakatlanish xususiyatiga ega emasligi qayd etiladi. Ikkinchi guruhga tashqi ta'sir natijasida harakat lanuvshi, lekin o'z xohishi bilan harakatlana olmaydigan soda hayvonlar (infuzoriyalar, poliplar, nurlilar va shuvalshang lar)ni kiritadi. Uchinchi guruhga nerv sistemasi yuksak darajada tuzilgan, takomillashgan sezuv organlari bo'lgan va o'z xohishi hamda tashqi muhit ta'sirida harakatlana oladi gan barsha boshqa hayvonlarni kiritadi. Tashqi muhit organizmlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashqi muhit o'simliklar va tuban hayvonlarga bevosita ta'sir ko'rsatganda undagi har qanday o'zgarish o'simlik qqismlarining rivojlanishiga kushli ta'sir etishi, ba'zi qqismlarining hosil bo'lishiga, boshqalarining kushsizlanib, hatto yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Masalan, suv ayiqtovoni (*Ranunsulus aquatus*) ning suv ichidagi barglari qirqilgan qayshibarg shaklida bo'lib, tola ipsimon; suv yuzasidagi barglari esa enli, shapaloq-shapaloq va panjasimondir. Bu o'simlik nam yerda o'ssa, poyasi qisqa va barglari qirqilmagan bo'ladi, shakli ipsimon bo'lmaydi. Uni botaniklar boshqa tur — *R. hederaseussifatida* ta'riflaydilar .

kamshqiliklarga yul o'yildi. Organizm vujudga kelishi haqida bunday arama-arshi fikrlar epigenez va preformizm oimlari o'rtasidagi keskin munozaralarga olib keladi. Epigenez tarafdorlari bolalarning ham otaga ham onaga o'xshashligini pyerfomistlarga arshi dalil sifatida keltirdilar. Preformistlar o'z navbatida, sho'lo, o'li yo' odamlardan o'li bor bolalarning tugqilishini epigenez tarafdorlariga arshi kurashda dalil sifatida foydalandilar. Umuman, epigenez va preformizm oimlari tarafdorlari o'rtasidagi munozara fan tarixida ijobiy rol o'ynaydi, embriologiya sohasida shuur ilmiy tadiot ilarining olib borqilishiga olib keldi, fan rivojiga turki byerdi, olimlarni yangidan-yangi kashfiyotlarga undadi.

«Mavjudotlar norvoni» xaqidagi tasavvurlar Aristotel ishlaridayoq vujudga kelgan bo'lsada, 18 asrga kelib kengroq targ'ib qqilina boshladi. Ayniqsa preformizm oqimi tarafdorlari tabiatdagi «tartiblik» va «oldindan belgilangan uyg'unlik» g'oyalarni «joylanish nazariyasi» asosida targ'ib qqilishga urindilar. Bu nazariyaga ko'ra, yaratilayotgan davrdayoq dastlabki urg'ochi organizmlarda keyingi barsha avlodlarning embrioni «joylab qo'yilgan». Masalan ovist, Italiya olimi A. Vallisnyeri barsha o'tgan va kelgusida vujudga keladigan avlodlarning embrionlari momo xavo organizmiga joylab qo'yilgan deb hisoblagan. Gallyer esa hatto bu embrionlar soni 200 mqiliardga yaqin deb hisoblab chiqqan.

Ovist SH. Bonne o'zining «Mavjudotlar norvoni» ni tuzib chiqdi . «Mavjudotlar norvoni» nozik materiyadan boshlanib olov, suv, yer, toshlar va suv o'tlar lishayniklar orqali organik olam bilan tutashgan so'ngra o'simliklar, hasharotlar , umo'rtasiz va umurtqali hayvonlar odamga tomon davom etgan.

Ayrim «Mavjudotlar norvonlarida» notirik jqismlaridan boshlanib, hatto ilohiy mavjudotlargacha joylashtirilgan. Ovistlar joylanish nazariyasini asoslashda shira hasharotlarning partenogenez yo'li bilan urug'lanmagan tuxum xujayradan rivojlanishini dalil qqilib keltirganlar. «Mavjudotlar norvoni»- da pog'onalarning har biri alohida, bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda qaraladi, ya'ni pog'onalardagi organizmlarning bir-biridan kelib-chiqishi va qon-qarindoshligini aks ettirmaydi. «Mavjudotlar norvoni» tabiatda turli darajadagi murakkabligidagi mavjudotlarning borligigina aks ettiradi. SH.Bonnening fikriga ko'ra, «Mavjudotlar norvoni» dagi pog'onalar soni sheksiz bo'lib, ularning barshasini aniqlashga xali bizning bqilimlarimiz yetarli emas, norvonning quyi pog'onasidan yuqori pog'onalariga tomon uzluksiz o'tish mavjud hamda barsha mavjudotlarni bir tarzida joylashtirish mumkin. Keyinshalik uning tarafdorlari jiddiy tanqidga ushradi. «Mavjudotlar norvoni» xaqidagi g'oyalar keyinshalik evolyutsion g'oyalar rivojlanishda tarixiy axamiyatga ega bo'ldi, deb xisoblash mumkin.

6-Seminar mashg'uloti

Mavzu: Ch.Darvin ta'limotining paydo bo'lishida rol o'ynagan omillar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, blits-so'rov*

19 asrda Angliyada evolyutsion ta`limot shakllanishi ushun ulay ijtimoyi iktisodiy Sharoit vujudga keldi. Angliyada kapitalizm rivojlanib, u jahonning bir ansha davlatlarini (Kanada, Hindiston, Avstraliya, YAngi Zelandiya, Tasmaniya, Janubiy Afrikani) bosib oldi. Angliyada sanoat va texnika rivojlandi, yirik shaharlar soni ortib bordi. Sanoat rivojlanishi ishlo ho`jaligi maxsulotlariga talabining oshishiga, ishlo xo`jaligi mahsulotlariga talabining oshishiga, ishlo xujaligining taraiy etishiga olib keldi. Metodik seleksiya rivojlanib, madaniy o`simliklarning yangi navlari, xonaki hayvonlarning yangi zotlari yaratildi. Lakutyor tanlash yo`li bilan o`simliklarning yangi navlarini shiarish mumkinligini birinchi bo`lib, tajribada isbotladi. Amaliy seleksiyaga R.Bekvell asos soldi. Layshestyer o`y zotlarining maxsuldorligi oshirildi. Aka-uka Kollinzlar ora molning shortgorn zotini shiardilar. Seleksiya bo`yicha ko`plab kitob, jurnallarda maolalar chop etilib, keng targib qilina boshladi. Tabiiy fanlar sohasida har bir qator yutuqlarga yerishildi. Biologiyada evolyutsion nazariya ushun muhim ahamyatga ega bo`lgan bir qator qonuniyatlar kashf etildi: tabiiy guruxlar; tuzqilish planinig birligi; geneologik shajara; gomologik organlar haqidagi ma`lumotlar; turlarning o`zgarishi; Byer qonunlar; yerning geologik o`zgarishlariga oid qonuniyatlari; tirik va notirik tabiatning o`xshash kimyoviy elementlardan tuzilganligi va bochalar. Biologiya sohasida yangi-yangi fan tarmolari vujudga keldi va evolyutsionizm g`oyalarining shakllanishiga olib keldi. iyosiy embriologiya, anatomiya fanlari rivojlandi, paleontologiya fani vujudga keldi. Barsha o`simlik va hayvonlar organizmlarning xujayralardan tuzilganligi ya`ni xujayfra nazariyasi kashf etildi. Dala va labarqatoriya tadiotlarining ani tekshirish usullari ishlab chiqildi. Lamark ta`limotiga yul qo`yilgan kamshqiliklarga yangi fan ma`lumotlari asosida anqiliklar kiritish extiyoji sezqilib oldi. YAngi fan ma`lumotlari asosida evolyutsionizmni tadi qilish muammosi paydo bo`ldi.

Charlz Robert Darvin 1809 yil 12 fevralda Angliyaning SHryusbyeri shahrida vrash oilasida tugildi. Maktabni bitirgandan so`ng Yerinburg univyersitetining meditsina fakultetida o`ishga kirdi. Lekin unga meditsinaga iziish yo`ligi sababli Kembrij univyersitetining ilohiyot fakultetiga kirib, o`ishni muvafaiyatli tugatgan. Bu fakultetda tabiiy fanlarning ham o`itqilishi Darvinda iziish uygotgan. Unga botanika professori Genslo, geologiya professori Sedjvik kabi olimlar ustozlik qilishgan. Darvin univyersitetni tugatgandan so`ng ustozlarining tavsiyasi bilan 1831 yil 27 dekabridan 1836 yil 2 oktyabrigacha «Bigl» harbiy kemasida tabitshunos sifatida 5 yil davomida dunyo bo`ylab safarda buladi. Bu kema yashil burun orollari orali Janubiy Amyerikaning Sharqiy irgolariga, undan olovli yerni aylanib o`tib, Janubiy Amyerikaning garbiy irgolariga boradi. Janubiy amyerika materigining ishki qismlariga bir necha bor ekspeditsiyalar uyushtiriladi. Keyin esa Galapogoss orollarining tabiatini o`rganadi. U yerda ushlar, toshbakalar va kaltekesaklar materikda ushramaydigan turlarini anilaydi. So`ngra ,Tinch okeani orali YAngi Zelandiya va Avstraliyada bo`lib, iziarli ma`lumotlar va kolleksiya to`playdi. SHundan keyin Hind

okeani orali yana Janubiy Afrika irgolari bo`ylab suzib, Atlantika okeani orali yana Janubiy Amerika Sharqiy irgolariga keladi, u yerdan esa Angliyaga aytib keladi. Ekspeditsiyada tuplangan boy material asosida o`zining evolyutsion nazariyasini ishlab shiadi va bir qator kitob hamda maolalar shop ettiradi. Darvin nazariyasining asosiy mazmuni 1859 yil 24 noyabrda shop ettirilgan «Tabiiy tanlanish yo`li bilan turlarning kelib shiishi, ya`ni yashash ushun kurashda eng yaxshi moslashgan zotlarning salanib olishi» nomli asarida bayon etilgan. Ch.Darvin bir qator ilmiy maola va asarlar muallifidir; «Xonaki hayvonlar va madaniy o`simliklarning o`zgarishi» (1868); «Odamning paydo bo`lishi va jinsiy tanlanish» (1871); «Orxideyalarda shanglanish» (1862); «Odam va hayvonlarda tuyguning ifodalanishi» (1872); «Hasharotxo`r o`simliklar» (1875); va boshqalar.

Darvin ta`limotiga quyidagi asosiy qoidalarni ajratib qarash mumkin: 1) O`zgaruvchanlik va irsiyat; 2) Xonakilashtirilgan hayvonlar, madaniy o`simliklarning xilma-xilligi va kelib shiishi; 3) Sun`iy tanlash; 4) Tabiiy sharoitda o`simliklar va hayvonlardagi o`zgaruvchanlik; 5) Yashash ushun kurash; 6) Tabiiy tanlanish; 7) Evolyutsiyaning divyergent xaraktyerdagqiligi; 8) Konvyergentsiya.

O`zgaruvchanlik va irsiyat. Darvin o`zgaruvchanlikning quyidagi xillarini ajratib aragan: 1) Muayan, guruxli (yalpi) o`zgaruvchanlik; 2) Nomuayyan o`zgaruvchanlik; 3) Korrelyativ yoki nisbiy o`zgaruvchanlik; 4) Kompensatsion o`zgaruvchanlik. Darvin o`zgaruvchanlik sabablari atrof-muhitning o`zgarishi ekanligini e`tirof etdi. Tashi muhit organizmga bevosita va bilvosita ta`sir etadi. Birinchi holda muhit omillari bir necha avlod davomida organizmga bevosita ta`sir etadi; ikkinchi holda esajinsiy organlariga ta`sir etadi. Muhit Sharoitining o`zgarishi natijasida organizmlarda o`xshash o`zgarishlarning paydo bo`lishi muayan, guruxli o`zgaruvchanlik deb ataladi. Masalan, namlikning kamayishi barglarning tikanga aylanishiga, tana sirtida tuklar sonining ortishiga olib keladi. Ozianing oshishi o`simliklarda xosildorlikning oshishiga olib keladi. Nomuayyan o`zgaruvchanlik ayrim individlarga xos o`zgarishlardir. Organizm bir qismining bosha qismi bilan bogli o`zgarishi korrelyativ yoki nisbiy o`zgaruvchanlik deb ataladi. Masalan o mushukning ko`zi ko`k bo`lsa, ulogi kar bo`ladi. oramolning shoxi uzun bo`lsa, juni ham uzun bo`ladi. Ba`zi organ va funktsiyalarning rivojlanishi bosha birlarining zaiflashib borishi yoki yuolib ketishi bilan sodir bo`ladigan o`zgaruvchanlik kompensatsion o`zgaruvchanlik deyiladi. Darvin irsiyat hodisalarini « pantegenezis farazi» asosida tushuntiradi. Unga ko`ra, organizmning barsha xujayralari mayda zarrachalari- gemulalar ajratib, ular jinsiy organlarda tplanadi. Gemullalar organizm bo`ylab yerkin harakatlanishi mumkin va organizmning barsha belgi xossalarini belgilab beradi. Bu Darvin ta`limotidagi kamshqiliklardan biridir. Darvin madaniy o`simliklar va xonaki hayvonlar yovvoyi formalardan tanlash yo`li bilan keltirkqilib shiarilganligini ko`rsatib byerdi. Dalil sifatida karam navlari kaptar xamda tovu zotlari ustida qilingan tajriba ma`lumotlarini keltirdi. Masalan, kaptar zotlari o`zaro shatishtirilsa, duragaylarda yovvoyi ko`k

kaptarga xos blgilar paydo bo`ladi. Tovu zotlari yovvoyi bankiv tovularidan keltirib shiarilgan. Darvin xonakilashtirish va madaniylashtirish jarayonida sun`iy tanlashning rolini ko`rsatib beradi. U sun`iy tanlashning 2 xil formasini ajratgan; 1) Ongsiz tanlash 2) Metodik tanlash. Metodik tanlashning ongsiz tanlashdan fari shundaki, unda inson, tadiotshi olim o`z oldiga nav va zot yaratishini masad kqilib o`yib, tanlashga ongli yondashadi. Ongsiz tanlash ani masadga aratilmagan va xujalik yoki hayotiy ehtiyojlardan kelib shiadi. Darvin tabiiy Sharoitda o`simlik va hayvonlarning o`zgaruvchanligiga oid ma`lumotlarni ham keltirib, tur tushunchasiga anqilik kiritib, unga evolyutsion mazmun beradi. Turlarning nisbiy turgunligini e`tirof etadi. «SHubxali turlar» muammosiga to`xtalib bu turlarning o`zgarib borayotganligining dalqili sifatida keltiradi. Darvin evolyutsiyaning harakatlantiruvshi kuchlarini o`zgaruvchanlik, yashash ushun kurash va tabiiy tanlanishdan iborat deb tushuntiradi. Unga ko`ra, o`zgaruvchanlik natijasida bir-biridan farlanuvshi formalar vujudga kelib, ular o`rtasida yashash ushun kurash sodir bo`ladi. Yashash ushun kurashda golib shian formalarning yaxshi moslashganlari tanlanib boradi. Natijada yangi formalar, turlar va bosha yuori taksonologik guruxlar vujudga keladi. «Yashash ushun kurash» tushunchasi organizmlar o`rtasida ozua ushun, noulay Sharoitga arshi kurashni majoziy ma`noda ifodalaydi. Yashash ushun kurash – yirtishlar o`rtasida o`lja ushun kurash;- organizmlarning abiotik Sharoit stixiyasiga arshi kurashi; bir xil o`simliklarning ko`pro joy egalashga doir kurashi; parazit va xo`jayin organizmlar o`rtasidagi kurash; Bir turga mansub organizmlar o`rtasidagi yashash ushun kurash: har xil turlarga mansub organizmlar o`rtasidagi yashash ushun kurash tarzida namoyon buladi. Organizmlarning tez urshishi yashash ushun kurash sababshisidir. Darvin ta`limotida tabiiy tanlanish tushunchasi alohida o`rin tutadi. Tabiiy tanlanish eng yaxshi moslashgan formalarning yashab olishi, moslashmaganlarning esa nobud bo`lishidir. O`zgaruvchanlik tabiiy tanlanish ushun material beradi. Tabiiy tanlanish zararli o`zgarishlarga ega bo`lgan formalarni qirib, ko`payishdan mahrum kqilib, o`z ta`sirini ko`rsatadi. Foydali o`zgarishlarga ega bo`lgan formalar ko`pro salanib oladi va foydali o`zgarishlar irsiy asosga ega bo`lsa, keyingi bo`ginlarga byerib boriladi. Organizmlarning yashash ushun kurash va tabiiy tanlanish jarayonida irkqilib ketishi eliminatsiya deyiladi. Darvin uz asarlarida tabiiy tanlanishini taoslab, o`xshashlik va farqlarni ko`rsatib byergan. Darvin ta`limotida evolyutsiyaning divyergent xarakteri ham ko`rsatilgan. Xilma – xil formalarning vujudga kelishi divyergentsiya – belgilarning ajralishi bilan sodir bo`ladi. Divyergantsiya evolyutsiyaning bosh yo`nalishi sifatida araladi. Divyergentsiya yo`li bilan bir turdan bir necha yangi turlar vujudga keladi. Buni hasharotlarda anoti bo`yicha ajralishlar, shittaklar avlodida belgilarning ajralishi misolida tushuntirish mumkin. Darvin evolyutsiyaning divyergantsiya tashi konvyergentsiya yo`li bilan ham sodir bo`lishi mumkinligini e`tirof etgan. Konvyergentsiya kelib shiishi turlicha bo`lgan formalarning bir Sharoitga yashab, unga moslashishi natijasida o`xshash belgilarning rivojlanishini ifodalaydi.

Masalan, suv muhitiga moslanish tufayli delfin, akula va ixtiozavr tanasi o`xshash tuzilgan. Delfin sut emizuvshi, akula togayli bali, ixtiozavr sudralib yuruvshi hayvon.

19 asr o`rtalarida kelib tabiatshunoslik fanlarida, jumladan, biologiyada juda ko`p tajriba ma`lumotlari to`plandi. Bu ma`lumotlarni asoslash ushun ma`lum bir ta`limot yoki nazariyaga ehtiyoj tugildi. SHunday nazariyalardan biri sifatida Darwin ta`limoti vujudga keldi. Bu ta`limotning mohiyati turli dunyoqarash va oimlar tomonidan turlicha talin qilindi. Darwin ta`limoti materialistlar, kommunistlar, ateistlar tomonidan hoyaviy asos kqilib olindi. U idealistik va diniy oimlar tomonidan qattiq tanid ostiga olindi. Darwinizmni turlicha talin etishlar tufayli evolyutsion ta`limotning bir qator oimlari vujudga keldi, masalan , klassik darvinizm, lamarksha darvinizm, neo darvinizm va bochalar. Ayrim oimlar, masalan, sotsial darvinizm darvinsha yashash ushun kurash tushunchasini hatto jamiyatga to`gridan – to`gri tadbi etishni ham targib ildi. Darwinizm asosida hozirgi evolyutsion ta`limot vujudga keldi va rivojlandi. Darwin ta`limoti evolyutsion nazariya rivojlanichidagi bosishlardan biri bo`lib oldi. Darwinizm genetika va ekologiya fanlari bilan uygunlashuvi natijasida evolyutsiyaning sinttik nazariyasi shakllandi.

7-Seminar mashg`uloti

Mavzu: Evolyutsion sintetik nazariyaning rivojlanishi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *BBXB jadvali, blits-so`rov*

XX asrga kelib irsiyat va o`zgaruvchanlik, bir va har xil turga kiruvchi organizmlar orasidagi munosabatlar, tur strukturasi kabi masalalar atroflicha o`rganila boshlandi. Genetika, ekologiya, molekular biologiya singari biologiyaning yangi shaxobchalari shakllandi. Mazkur fanlarning klassik darvinizm bilan qo`shilishi natijasida evolutsiyaning sintetik nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaning asosiy qoidalari bo`lib:

1. Evolutsiyaning boshlang`ich materiali mutatsion va kombinativ o`zgaruvchanlik hisoblanadi.
2. Evolutsiyaning boshlang`ich birligi bo`lib populyatsiya sanaladi.
3. Evolutsiyaning boshlang`ich omili populyatsiya to`lqini, genetik-avtomatik jarayonlar va alohodalanihdan iborat.
4. Har bir tur populyatsiyalardan tashkil topgan.
5. Tur morfologik, bioximik, fiziologik, ekologik, genetik jihatdan nisbatan farqlanuvchi, jinsiy jihatdan alohidalashgan kenja tur, populyatsiyalar majmuasidan tashkil topgan.
6. Genlar almashishi, oqimi faqat tur doirasida amalga oshadi.
7. Evolutsiya divergent, ya`ni bir avlod turdan bir necha yangi turlar kelib chiqishi, ayrim hollarda esa yagona avlod turdan yagona yangi tur kelib chiqishi ko`rinishida bo`ladi.

8. Evolutsiya asta-sekin kechuvchi uzoq muddatli jarayon bo'lib, bunda turlarning kelib chiqishi bir populyatsiyaning boshqa, yangi populyatsiya bilan almashishi orqali tafsiflanadigan evolutsion bosqich sanaladi.

9. Turning asosiy mezonni jinsiy alohidalanish ekanligi e'tiborga olinsa, mazkur mezonni jinsi yaxshi ifodalanmagan organizmlarga nisbatan tadbiriq qilib bo'lmaydi.

10. Mikroevolutsiya tur doirasidagi, makroevolutsiya esa turdan yuqori taksonlardagi evolutsion jarayonlarni ifodalaydi.

Mikroevolutsiya. Tur doirasidagi evolutsiya jarayonlari haqida so'z yuritilar ekan, avvalo evolutsiyaning, boshlang'ich birligi, materiali, hodisasi va omillari kabi tushunchalarni bir-biridan farq qilish lozim.

Populyatsiya evolutsiyaning boshlang'ich birligi. Har bir turga kiruvchi organizmlar areal doirada bir xil tarqalmagan bo'lib, ba'zi joylarida siyrak, boshqa joylarida esa zich joylashgan. Chunonchi, qayin G'arbiy Sibirning o'rmon- dashtida kichik-kichik daraxtzor holda tarqalgan. Bir turga kiruvchi individlarning arealda bir xil tarqalmasligi, turli yerlarda hayot sharoitining har xil bo'lishidadir. Populyatsiya deyilganda bir tur tarqalgan arealning ma'lum qismida joylashgan shu turga mansub boshqa populyatsiyalardan ayrim belgi-hossalari bilan farq qiluvchi, nisbatan alohidalashgan, urchib ko'paya oladigan individlar yig'indisi tushuniladi. Populyatsiya evolutsiyaning boshlang'ich birligi deyilishiga sabab shuki, u tur doirasidagi mustaqil evolutsion rivojlanish mumkin bo'lgan organizmlarning kichik yig'indisidir. Tur doirasida organizmlar to'da, gala, poda bo'lib yashaydilar. Lekin ular uzoq muddat shunday holatda bo'lmay, tezda tarqalib ketishlari mumkin. Shunga binoan ular evolutsiyaning boshlang'ich birligi bo'la olmaydi. Turning arealda egallagan joyiga qarab unda populyatsiyalar soni har xil bo'ladi. Keng arealda va sharoiti xilma-xil joylardagi turlarda populyatsiyalar soni ko'p, tor arealda tarqalgan turlarda populyatsiyalar soni kam bo'ladi. Har xil turga kiruvchi populyatsiyalar bir-biridan avvalo egallagan areali hajmi bilan farq qiladi. Areal hajmi hayvonlarning harakatlanish tezligi, o'simliklarning esa chetdan changlanish masofasiga bog'liq. Tok shilliq qurtining harakatlanish radiusi bir necha o'n metr bo'lsa, shimol tulkisining harakatlanish radiusi bir necha yuz kilometr ga cho'ziladi.

Evolutsiyaning boshlang'ich materiali mutatsion va kombinativ o'zgaruvchanlik hisoblanadi. Mutatsion gen, xromosoma, genom va sitoplazmatik xillarga bo'linadi. Gen tushunchasi sizga sitologiya va genetika asoslaridan ma'lum. Gen tarkibidagi nukleotidlar sonining ortishi, kamayishi yoki o'rin almashishi o'zgaruvchanlikni keltirib chiqaradi. Mutatsiya tasodifan ahyon-ahyonda uchraydi. Gen mutatsiyalarining takrorlanishi 10-10ga teng. Xromosoma mutatsiyasi ayrim xromosomalarning biror qismi uzilib yoki ortib ketishi, o'rin almashishi tufayli yuzaga keladi. Agar bir xromosomada bir necha yuz genlar borligi e'tibotga olinsa, u holda xromosoma mutatsiyalari juda katta o'zgarishlarga olib keladi, deb tafovut etish

mumkin. Gen xromosoma mutatsiyalariga qaraganda genom mutatsiyalar juda kam hollarda ro'y beradi.

Mutatsiyalarning ko'pchiligi zararli bo'ladi va tabiiy tanlanish orqali bartaraf etiladi.

Ayrim mutatsiyalar organizm uchun shu konkret sharoitda foydali bo'lishi mumkin. Bunday hollarda mutatsiyalar organizm urchiyotganda kelgusi bo'g'inlariga beriladi. U urchish natijasida asta-sekin ko'paya boradi. Har qanday foydali mutatsiyaga ega bo'lsa ham yakka organizm hech bir payt evolutsion jarayonni hosil etolmaydi.

Evolutsiyaning boshlang'ich hodisasi. Uzoq vaqt davom etadigan mutatsion o'zgaruvchanlik, tabiiy tanlanish bu populyatsiya doirasida har xil genotipli organizmlarning tutgan o'rnini, boshqacha aytganda, populyatsiya genofondini nisbatan o'zgartirishi mumkin. Populyatsiya genofondining o'zgarishi evolutsion jarayon tomon qo'yilgan dastlabki qadamdir.

Evolutsiyaning boshlang'ich omillari. Kichik populyatsiyalarda mutant allellarga ega individlar tez va tasodifiy o'zgarishi mumkin. Masalan, Rayt, bir necha oziqli probirkaga A geni bo'yicha geterazigota bo'lgan ikkitadan erkak va urg'ochi drozofilalarni joylashtirib, ularning nasllari ustiga kuzatish o'tkazdi. Bir necha bo'g'indan so'ng probirkadagi drozofillalar tekshirilganda, ba'zi populyatsiyada faqat mutant drozofila borligi, boshqa populyatsiya tarkibida u tamoman uchramasligi, uchinchilarida esa dominant hamda retsessiv allel formalar borligi aniqlandi. Populyatsiya genofondidagi genlarning tasodifiy o'zgarishi **genlar dreyfi** deyiladi.

Populyatsiya to'lqini. Sizlar o'z kuzatishingiz orqali ob-havo qulay bo'lgan yillari ayrim hayvon, o'simlik turiga kiruvchi organizmlarning ko'payib ketishi, hayot uchun noqulay bo'lgan yillarda esa keskin kamayib ketishini bilasiz. Har bir populyatsiyaga kiruvchi organizmlar ham bunday hodisadan mustasno emas. Bahorda yog'in –sochin ko'p bo'lgan yillarda bir yillik ko'p yillik o't o'simliklar – boychechak, yaltirbosh, qo'ng'irbosh, qoqio't, ituzum avj olib o'sib, ko'p urug' beradi. Natijada ular bilan oziqlanuvchi hasharotlar, o'tho'r hayvonlar soni ham ko'payib ketishi mumkin. Hasharotlarning, o'tho'r hayvonlarning ko'payishi o'z navbatida hasharotho'r qushlar, yirtqich hayvonlar sonining ham ortishiga olib keladi. Populyatsiya tarkibidagi organizmlarning son jihatdan ortib ketishi yoki nihoyatda kamayib ketishi **populyatsiya to'lqini** deb ataladi. Bunday voqealarning tez-tez takrorlanishi populyatsiya genofondining o'zgarishiga sababchi bo'ladi.

Alohidalanish. Darvin o'z vaqtida alohidalanish muhim evolutsion omil ekanligini, chunki u bir tur doirasida belgilarning tarqalishiga, turlarning o'zaro chatishmasligiga olib kelishini uqtirgan edi. Organizmlarda alohidalanishning bir necha xillari mavjud.

Geografik alohidalanish yirik daryolar, baland tog'lar va boshqa to'siqlar orqali ro'y beradi.

Biologik alohidalanish esa tur ichidagi individlarning o'zaro chatishmasligiga olib keladi.

Ekologik alohidalanish bir tur doirasidagi organizmlarning har xil vaqtdagi jinsiy faolligi va jinsiy yetilishi bilan aloqador.

Etiologik alohidalanish hayvonlarning xatti-harakati bilan aloqador. Ba'zi qushlarning o'ziga xos sayrashi, utg'ochisini o'ziga jalb qilishi bir-biridan farq qilishi bunga yorqin misoldir.

Alohidalanishning turli shakllari uzoq muddat davomida har xil allellarga ega organizmlarning erkin chatishishini bartaraf etadi. Bu esa o'z navbatida alohidalashgan organizm guruhlarini bir-biridan farq qilishga, yangi populyatsiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tabiiy tanlanishdan farqli o'laroq, yuqorida bayon etilgan evolutsiyaning boshlang'ich omillari ma'lum yo'nalishga ega bo'lmaydi.

8-Seminar mashg'uloti

Mavzu: Organizmning muhitga moslanishi va uning xillari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Klaster, blits-so'rov*

Moslanish organizmlarning yashovchanligi, raqobatchanligi va normal nasl qoldirishi bilan uzviy aloqadordir.

Yashovchanlik. Odatda, shaxsiy taraqqitotning turli bosqichlarida ro'y beradigan mutatsion o'zgaruvchanlik ko'pgina hollarda organizmlarning yashovchanligini pasaytirib yuboradi, ba'zan o'limiga sababchi bo'ladi. Shuni e'tiborga olib yashovchanlik deganda organizmlarning o'zi tarqalgan muhitda genotipini keskin o'zgartirmagan holatda normal yashashi tushiniladi.

Raqobatchanlik – organizmlarning o'lik va tirik tabiat, shu jumladan oziq topish, boshqa jins bilan qo'shilish, yashash joyini egallashdagi qarshiliklarni yengishidir. Ayrim hollarda organizm yashovchan bo'lsa-da, uning raqobatchanligi sust rivojlangan bo'ladi.

Nasl qoldirish organizmlar urchishining normal kechishi bilan bog'liq. Organizm jinsiy organlari yoki hujayralarida biror kamchilik bo'lsa, albatta urug'lanish jarayoni normal kechmaydi va u nasl bermaydi.

Moslanishning bu uch komponenti o'zaro bog'liq bo'lib, tabiiy tanlanish orqali tarkib topgan evolutsion natija hisoblanadi.

Ch. Darvinnig ulug` xizmatlari faqat tarixiy jarayonda turlarning o`zgarganligini isbotlash bilan cheklanmaydi. Olim fan tarixida birinchi bo`lib moslanish muammosini ilmiy asosda hal qilib berdi. Sizlar kundalik hayotda baliqlarning suv muhitiga, qushlarning esa havo muhitiga moslashganligini yaxshi bilasiz. Bular ayrim misollar, xolos. Aslini olganda tirik mavjudodlarning muhit sharoitiga moslanishi nihoyatda xilma-xil. Quyida ularning ba`zi birlari bilan tanishib chiqamiz.

Hayvonot olamidagi moslanishlar. Hayvonlarning muhit sharoitiga moslanishi tashqi, ichki tuzilishda, bajaradigan funksiyasida, urchishida, nasl uchun qayg`urishida va boshqa xatti-harakatida namoyon bo`ladi.

Himoy rangi. Ko`pchilik hollarda hayvonlarning tashqi rangi o`zi yashayotgan muhit rangiga o`xshash yoki unga yaqin bo`ladi. Odatda, cho`lda yashaydigan toshbaqa, kaltakesak, ilonlar qum rangida, shimoliy o`lka hayvonlari – ayiq, kurapatka, tulki oq rangda, beshiktervatar, ninachilar yashil barglar orasida yashagani, karam kapalagi qurti uning barglari bilan oziqlanganligi sababli yashil rangda bo`ladi. Agar muhit rangi fasllarga qarab o`zgarsa, u holda hayvonlar rangi ham o`zgaruvchan bo`ladi.

Masalan, Yevropaning o`rta mintaqasida yashovchi tulki, tovushqon, kurapatka, gongostay qishda bir, yozda ikkinchi xil rangda bo`ladi.

Maskirovka. Ayrim hollarda hayvonning tana shakli va rangi atrofidagi barg, novda, kurtak, o`simliklarga o`xshash bo`ladi. Chunonchi, chupchik degan hasharot rangi va shakli ingichka novdani, ninabaliq suv o`tlarini, dengiz paxmoq otchasi deb ataluvchi baliq suv o`simliklarini eslatadi. Ayrim baqachanoqlar daraxt kurtaklariga o`xshashdir.

Malayada tarqalgan kallima kapalagining qanotlarining shakli, naqsh va tomirlari bargga o`xshash bo`ladi.

Ogohlantiruvchi rang. Ba`zi hayvonlarning tashqi ko`rinishi rang-barang bo`lib, ko`zga yaqqol tashlanadi. Tillaqo`ng`izlar, tugmachaqo`ng`izlar, qovog`ari, tulki ari, ko`pgina kapalaklar, “do`st-dushman” ko`ziga yaqqol tashlanib, o`z ranglari bilan ularni “ogohlantiradilar”. Odatda bunday ogohlantiruvchi rangga ega hayvonlarning dushmanlardan himoya qiladigan qo`shimcha vositalari mavjud. Ularning xususiy himoya vositalariga tanada ishlab chiqaradigan qo`lansa hidlar, zaharli suyuqliklar, tananing tuklar bilan qoplanganligi, nayzalar va hokazolar kiradi.

Mimikriya. Ba`zi hollarda dushmanlari tomonidan ko`p qiriladigan hayvonlar tanasining rangi, shakli bilan “ogohlantiruvchi rangli” organizmlarga taqlid qiladi. Kushandalari tomonidan ko`p qiriladigan himoyasiz hayvonlarning “ogohlantiruvchi rangli” kam qiriladigan organizmlarga taqlid qilishi *mimikriya hodisasi* deb ataladi. Ba`zi bir pashshalarning ayrim kapalak turlarining rang jixatdan arilarga, suvaraklarning tugmachaqo`ng`izlarga, zaharsiz ilonlarning zaharli ilonlar rangida

bo`lishlari mimikriya hodisasiga misoldir. Shuni qayd qilish lozimki, himoya va ogohlantiruvchi ranglar hayvon hatti-harakati bilan bog`langan holda samarali natija beradi. Qamishzorlarda yashovchi ko`lbuqa qushi patlarining rangi bilan qamishlarni eslatadi. Shunga qaramay biror xavf sezilsa, u darrov bo`ynini cho`zib, tumshug`ini ko`targan holda qimiqlamay turadi. Bunday vaziyatda uni dushmani payqamay qoladi.

Rang va shakl jihatdan taqlid qilish faqat organizmlargagina emas, hatto tuxumlarga ham xos. Masalan, kakku qush urchishi uchun boshqa qushlar singari in qurmaydi va tuxumini mayda qushlar – qorayaloqlar, jibilajibonlar, bulbul, sirchumchuqlarning inlariga qo`yadi. Eng muhimi shundan iboratki, kakku tuxum qo`yishdan oldin ana shu qushlarning inlaridagi tuxumlarni ko`rib ularga taqlid qilib tuxum qo`yadi va uning qo`ygan tuxumlarining rangi, hajmi in egalarining tuxumlariga o`xshash bo`ladi.

Bundan tashqari ham hayvonlarning nasl qoldirish bilan aloqador moslanishlari mavjud. Chunonchi, ayrim hasharotlarning urg`ochilari tanadagi bezlardan ajralgan hidlari orqali erkak individlarni o`zlariga jalb qiladilar. Ba`zi moslanishlar nasl yetishtirish bilan aloqador. Amerika som balig`i chavog`lar rivojlanguncha tuxumlarni qorin tomonga yopishtirgan holda yuradi. Povituxa deb ataluvchi qurbaqa otalangan tuxumlarini to yosh qurbaqalar rivojlanguncha orqa tomonda “opichlab” yuradi. Tuban umurtqalilardan farqli ravishda qushlar tuxumlarini maxsus inlariga qo`yib o`z tana harorati bilan ularni isitadilar. Tuxumdan jish parranda chiqqach, uni tinmay oziqlantiradilar, dushmanlardan himoya qiladilar. Nasl uchun qayg`urush bilan bog`liq moslanishlar sutemizuvchilarda ayniqsa, kuchli bo`ladi.

Organizmdagi moslanishdan tashqari tur doirasidagi moslanishlar ham mavjud. Tur doirasidagi moslanishlarga guruh bo`lib yashovchi organizmlarda oziqlanish, urchish, nasl qoldirish, dushmanlardan himoyalanishga, noqulay ob-havo sharoitlar qarshiligini yengishga aloqador bo`lgan moslanishlarni kiritish mumkin.

O`simliklar orasidagi moslanish. Hayvonlar singari o`simliklarda ham tashqi muhit omillariga nisbatan bir qancha moslanishlar mavjud. Masalan, nam tanqisligiga o`simliklar turlicha moslashgan bo`ladi. Bir xil o`simliklarning bargi ustki tomondan mum qavat, ikkinchi xillarda qalin tuklar, bilan qoplangan. Saksavulda barglar kichik “tangacha”larga aylangan. Yantoqning barglari mayda va qattiq, ko`pgina shoxchalari tikan shaklida. Kaktus, aloe, agavalar sersuv o`simliklar hisoblanadi. Ba`zi o`simliklarning vegetatsiya davri juda qisqa, masalan, ayiqtovon, yaltirbosh erta bahorda o`sib, rivojlanib, urug` berishga ulguradi. Yantoq, shuvoq kabi o`simliklar qurg`oqchilik paytida barglarini to`kish orqali o`z hayotini saqlaydi.

Osimliklarning chetdan changlanish bilan aloqador bo`lgan bir qancha moslanishlar bor. Hasharotlar orqali changlanadigan o`simliklarning gultojibarglari yirikligi, rangining xilma-xilligi, xushbo`y hid tarqatishi, nektar ajratishi bilan hasharotlarni o`ziga jalb qiladi. Aksincha, shamol yordamida changlanadigan

o`simliklarning gullari mayda, ko`rimsiz, hidsiz, changlari juda engil. O`simliklarda meva va urug`larning tarqalishiga nisbatan ham bir qancha moslanishlarni ko`rish mumkin. Shamol yordamida tarqaladigan qayin, qayrag`och aylant, zarang meva va urug`larida qanotsimon o`simtalar, g`o`za chigitida tuklar bo`ladi. Ittikan, sariqsoch, yovvoyi sabzi, qariqiz, qo`ytikan mevalarida ilgak, tikan, tuklar bo`lib, ular hayvonlarning juniga, qushlarning patiga, odamlarning kiyimiga yopishishi orqali uzoq masofalarga tarqaladi. Etdor, sersuv danakli va danaksiz mevalar qushlar va boshqa hayvonlar tomonidan yeyilib, hazm bo`lmagan urug`lar ahlat orqali tashqariga chiqarib tashlanadi. Suv orqali tarqaladigan meva va urug`larda ham ba`zi bir moslanishlar bor.

Bayon etilganlarga xulosa qilib biz moslanish deyiganda tirik organizmlarning ma`lum muhitda yashab, nasl qoldirishini tushinish kerakligini qayd qilib o`tamiz.

Moslanishning kelib chiqishi. Darvin tashqi muhitning muayyan sharoitida organizmlardagi murakkab va turli- tuman moslanishlar qanday paydo bo`lganligini ilmiy asosda tushuntirib berdi.

Darvin mulohazasi qanchalik to`g`ri ekanligini aniqlash maqsadida kapalaklar tana rangining o`zgarishiga oid ma`lumotlarni tahlil qilib chiqamiz.

XVIII-XIX asrdan boshlab tangaqanotlilarning 70 ga yaqin turida tana rangining o`zgarganligi ma`lum bo`ldi. Bunday ozgarishlarning sababi *qayin odimchisi* deb nom olgan kapalak turida atroflama o`rganildi. Mazkur kapalakning tanasi oq rangda bo`lib u oqqayin po`stlog`iga o`tirganda ko`zga tashlanmaydi. Binobarin u himoya vazifasini o`taydi. Keyingi 200 yil davomida ko`pgina Yevropa mamlakatlarida zavod-fabrikalarning ko`payishi va ulardan ajralgan chiqindilar hisobiga shahar, sanoat markazlari ifloslanib, daraxt tanalari, shox-shabbalari barglari qurum, changlar bilan qoplana bordi.

Ma`lumki, muhit omillarining o`zgarishi u yerda yashayotgan organizmlarga ta`sir etmay qolmaydi. Lekin bu o`zgarishlar ilgari qayd etilganidek zararli, neytral va foydali bo`ladi. Shunga ko`ra qishloq joylarda mutatsion o`zgaruvchanlik natijasida qoramtir kapalaklar paydo bo`lsa, ular tezda hasharotxo`r qushlar tomonidan yeb bitirilgan. Chunki ularda himoya rangi bo`lmaganligi uchun hasharotho`r qushlar ularni yaxshi ko`rishgan. Sanoatlashgan markazlarda esa bunday kapalaklar rangi qurum bosgan daraxt tanasi, shox-shabbasi rangida bo`lganligi sababli himoya vazifasini o`tagan. Snu zaylda shaxarda qoramtir, qishloqda oq rangli kapalaklar son jixatdan ko`paya borgan. Hasharotxo`r qushlar ustida o`tkazilgan kuzatishlardan ma`lum bo`lishicha chittak, moyqut va boshqa shu singari qushlar sanoat markazlarida qayin odimchi kapalagining oqish, qishloq joylarida esa qoramtir nusxalarini ko`proq yer ekan. Genetiklarning aniqlashicha, qayin odimchisi kapalagida tana rangining xatti-harakatining o`zgarishi gen mutatsiyasiga aloqador.

Bayon etilgan ma'lumotlar tangaqanotlilarning himoya rangi irsiy o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlanish natijasi ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida Darvinning tabiiy tanlanish tufayli moslanishlar kelib chiqqanligi haqidagi mulohazasi naqadar to'g'ri ekanligidan dalolat beradi.

Organizmdagi moslanishlarning nisbiyligi.

Organizmlarning muhit sharoitiga moslanishi uzoq muddatli tarixiy jarayonda tabiiy tanlanish ta'siri tufayli paydo bo'lgan. Shunga qaramay u mutlaq emas, nisbiydir. Chunki muhit, sharoitlarning o'zgarishi tez, moslanishning paydo bo'lishi esa sekinlik bilan kechadi. Moslanishning nisbiy xarakterda ekanligini juda ko'p dalillar yordamida isbotlash mumkin. Avvalo, organizmda bir turdan saqlanish uchun paydo bo'lgan moslanishlar boshqa turdan himoyalanişda samara bermasligini qayd qilib o'tish kerak. Masalan, cho'l toshbaqalarining ustki, ostki kosalari ko'pchilik yirtqich hayvonlardan himoya qilsa ham, burgut, boltayutar, sarisor kabi yirtqich qushlardan himoya qila olmaydi. Chunki ular toshbaqalarni osmondan qattiq yerga tashlab parchalab yeydilar. Shunga o'xshash tipratikannig "tikanli po'stini" ham uni hamma yirtqich hayvonlardan, xususan, tulkilardan himoya qila olmaydi. Ko'pchilik hayvonlar, odamlar uchun xavfli hisoblangan zaharli ilonlarni mangustlar, tipratikanlar, cho'chqalar yeyishi ma'lum. Ari, qovoqari aksariyat ko'pchilik hasharotxo'r qushlar yemagam holda, ular Sirdaryo atrofida uchrovchi qarchig'aysimon oilasiga kiruvchi arixo'r qushning asosiy ozug'i hisoblanadi.

Bundan tashqari bir xil sharoitda paydo bo'lgan organizmdagi moslanishlar ikkinchi xil sharoitda foydasiz, hatto ziyon bo'lishi mumkin. Baliqlarning tana tuzilishi, funksiyasi suv muhitida foydali, quruqlikda bu moslanishlar ularni halok bo'lishiga olib keladi. Qaldirg'ochning uzun qanotlari, nimjon oyoqlari havo muhitida nihoyatda foydali bo'lsa-da, yerdagi harakatlanishiga ko'pincha to'siq bo'ladi. Xuddi shuningdek tog' g'ozlari barmoqlarinig orasidagi parda quruqlikda ular uchun ziyon hisoblanadi. Hayvonlardagi yashash uchun kurash tabiiy tanlanish ta'sirida shakllangan instinktlar ba'zan maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi, tungi kapalaklar oq gullardan nektar yig'ish instinktiga ega. Shu bilan tungi kapalaklar yorug' beruvchi lampaga yaqinlashib o'zlarini nobud qilishlarini har bir o'quvni ko'rgan. Bularning hammasi organizmlardagi barcha moslanishlar mutlaq emas, nisbiy ekanligidan dalolat beradi.

9-Seminar mashg'uloti

Mavzu: Tabiiy tanlanish va uning natijasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Munozara, blits-so'rov*

Yashash uchun kurash ko'pchilik organizmlarning halok bo'lishi, ba'zilarining esa yashab qolishi bilan bog'liq holda ro'y beradi. Madomiki shunday ekan, u holda qanday organizmlar yashab qolib, qandaylari halok bo'ladi, degan savol kelib chiqishi tabiiy bir hol. Mavzuning boshida biz tabiiy sharoitda yashaydigan o'simlik va hayvonlarning har bir individida shaxsiy o'zgaruvchanlik sodir bo'lishini qayd qilgan edik. Shaxsiy o'zgaruvchanlik organizmda uch ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ularning bir xillari organizm uchun foydali, ikkinchi xillari organizm uchun befarq, uchinchlari esa organizm uchun ziyon bo'ladi. Odatda ziyon o'zgaruvchanlikka ega organizmlar shaxsiy taraqqiyotning turli bosqichlarida halok bo'ladilar. Organizm uchun befarq o'zgaruvchanlik ularning yashovchanligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Foydali o'zgaruvchanlikka ega individlar tur ichidagi, tulararo yoki abiotik muhitning noqulay sharoitlariga qarshi kurashda bir muncha afzalliklarga ega bo'lganligi sababli yashab qoladi. ***Yashash uchun kirashda foydali belgi, xossalarga ega organizmlarning yashab qolishi, shunday belgi, xossalarga ega bo'lmaganlarining nobud bo'lishini Darvin tabiiy tanlanish deb atadi.*** Agar sun'iy tanlashni inson olib borsa, tabiiy tanlanishni tabiat boshqaradi. Sun'iy tanlanishni o'tkazishda inson doimo o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Shu sababli sun'iy tanlash tufayli chiqarilgan zot va navlarda inson uchun foydali belgi-xossalar yaxshi rivojlangan bo'ladi. Tabiiy tanlanishda esa inson manfaati emas, balki organizm manfaatlari birinchi o'rinda turadi. Buning oqibatida organizm uchun foydali belgi-xossalar avloddan-avlodga tabiiy tanlanish tufayli o'ta boradi. Bunday irsiy o'zgarishga ega organizmlar boshqa organizmlar bilan chatishishi tufayli soni ko'payib boradi. Yashash uchun kurashga moslashgan organizmlar moslashmagan organizmlarga nisbatan kamroq nobud bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan tabiiy tanlanish, organizmning muhitga moslashishida yangi populyatsiya, turlarning kelib chiqishida asosiy omil ekanligidan dalolat beradi.

Tabiiy tanlanishning shakllari.

Stabillashtiruvchi tanlanish. Organizmlar yashayotgan muhit sharoiti davrlar o'tishi bilan asta-sekin o'zgara borishi yoki nisbatan o'zgarmay qolishi mumkin. Har ikki holda ham muayyan sharoitda yashayotgan individlarning ba'zilarida mutatsion, kombinativ o'zgarishlar bo'lishi, boshqalarda esa oldingi avlodlarga o'xshash belgi-xossalar saqlanishi tabiiydir. Muhit sharoitning ko'p va oz darajada doimiyligi natijasida bir turga mansub individlar orasidan tabiiy tanlanish avlodlarga xos belgi-xossalarga ega bo'lgan, yani shu sharoitga moslashgan individlarni saqlab, keskin irsiy o'zgarishga ega individlarni nobud qiladi. Buning oqibatida, masalan, qadimgi panjaqanotli baliqlar avlodi latimeriya, sudralib yuruvchilardan gatteriya, sutemizuvchi hayvonlarning tuxumidan ko'payuvchi, shuningdek, xaltali xillari, ochiq urug'li o'simliklardan – ginkga biloba bir necha million yillar davomida deyarli o'zgarmagan holda saqlanib kelmoqda. Tashqi muhitning deyarli o'zgarmas mo'tadil

sharoitda avlod-ajdod belgilari o'zgarmagan individlarning saqlanib qolishi, o'zgarganlarining esa qirilib ketishiga **stabillashtiruvchi tanlanish** deyiladi.

Tabiatda haqiqatdan ham stabillashtiruvchi tanlanish mavjud ekanligini ko'pgina misollarda ko'rish mumkin. Masalan, 1892-yili Shimoliy Amerikada qattiq qor bo'ronidan so'ng **Bempes** tomonidan 136 ta o'rtacha chalajon chumchuqlar issiqroq xonaga keltirilganda, ulardan 72 tasi tirilgan, 64 tasi esa o'lgan. Ular tekshirilganda tirik qolgan chumchuq qanotlari o'rtacha uzunlikda, o'lganlarning qanoti nisbatan uzun yoki qisqa ekanligi ma'lum bo'lgan. Stabillashtiruvchi tanlanish ta'siri odamlarda ham uchraydi. Normal odamlar hujayrasida 44ta aytosoma va 2ta jinsiy xromosoma borligini bilasizlar. Agar ayolning urug'langan tuhum hujayrasida 44ta autosoma va bitta Y xromosoma bo'lsa, boshqacha aytganda X xromosoma etishmasa, u holda homila ona qornida 2 – 3 oydan so'ng rivojlanmay qoladi va tabiiy abort ro'y beradi.

Harakatlantiruvchi tanlanish. Muhit sharoit o'zgargan taqdirda, yoki bu turga kiruvchi individlar orasida irsiy o'zgaruvchanlikka, shu bilan yangi sharoitga anchagina mos keladigan belgi-xossalarga ega organizmlar saqlanib qolib, o'zgarmagan organizmlar nobud bo'ladi. Darvin besh yillik safar choq'ida kuchli shamol tez-tez bo'ladigan okean orollarida uzun qanotli hasharotlar kam, rudiment qanotli va qanotsiz hasharotlarning ko'pligini uchratgan. Olimning izohlashicha, bunday orollarda qattiq shamol bo'lishi tufayli normal qanotli hasharotlar unga bardosh bera olmasligi sababli shamol ularni uchirib, halok etgan. Rudiment qanotli va qanotsiz hasharotlar mutlaqo havoga ko'tarilmay, turli yoriq, kovaklarga yashirinib olganlar. Bu jarayon ko'p ming yillar davom etishi tufayli irsiy o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlanish okean orollarida hasharotlarning uzun qanotlilarning kamayishiga, rudiment qanotli va qanotsiz individlarning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan. Organizmlarning yangi belgi-xossalarining hosil bo'lishi va rivojlanishini ta'minlaydigan tabiiy tanlanish xili **harakatlantiruvchi tanlanish** deb ataladi.

Dizruptiv tanlanish. Ba'zi hollarda muayyan joyda tarqalgan bir turga mansub organizmlar orasida bir-biridan farq qiluvchi ikki va undan ortiq individlar guruhi uchrashi mumkin. Bu tabiiy tanlanishni yana bir alohida shakli bo'lgan dizruptiv tanlanish natijasidir. Chunonchi, ikki nuqtali tugmacha qo'ng'izning qoramtir va qizg'ish, qattiq qanotli formalari uchraydi. Qizg'ish qanotlilar qishda haroratning pasayishi tufayli kam nobud bo'lib, yoz oylarida esa kam nasl beradi. Aksincha, qoramtir qattiq qanotli formalari qishda past haroratga bardosh berolmay, ko'proq nobud bo'ladi va yoz oylarida esa ko'p nasl beradi. Demak, yilning turli fasliga moslashish orqali bu ikki xil tugmacha qo'ng'iz guruhi o'z naslini asrdan asrga saqlab kelmoqda.

10-Seminar mashg`uloti

Mavzu: Yashash uchun kurash.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Venn diagrammasi, blits-so`rov*

Darvin yashash uchun kurashning uch xil:

- a) har xil turlarga organizmlar orasidagi kurash:
- b) bir turga kiruvchi organizmlar orasidagi kurash:
- d) organizmlarning anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi kurash kabi formalarini farqlagan.

Har xil turlarga mansub organizmlar orasidagi kurash nihoyatda turli-tuman. Chunonchi, bo`ri va tulkilar tovushqonlar bilan oziqlanadilar. Shunga ko`ra bo`rilar bilan tulkilar, shuningdek, tulkilar bilan tovushqonlar orasida doimiy, yashash uchun o`zaro kurash ketadi.

O`ljaning yo`qligi yirtqichlarning och qolishiga va o`limiga sabab bo`ladi. Markaziy Osiyoda ko`p tarqalgan hind maynasi chigirtkalar bilan ham oziqlanadi. Chigirtkalar chumchuqlar uchun ham ozuqa sanaladi. Binobarin, maynalar bilan chumchuqlar orasida raqobat ro`y beradi. Tuyoqli hayvonlar o`simliklar bilan oziqlanadi. O`simliklar bilan chigirtkalar ham oziqlanadi.

Chigirtkalarining ko`payib ketishi tuyoqli hayvonlarning och qolib o`lishiga sabab bo`ladi. Ikkinchi tomondan tuyoqli hayvonlar hayoti yirtqich hayvonlarga bog`liq. O`simliklarning mavjudligi faqat o`txo`r hayvonlargagina emas, balki ularni changlatadigan hasharotlar, shuningdek, boshqa o`simlik turlari o`rtasida bo`ladigan raqobar bilan ham aloqador. Turlar orasidagi yashash uchun kurash unchalik shiddatli bo`lmasligi mumkin. Bunga asosiy sabab har turga mansub organizmlarning o`zuqasi har xil emas, turli xil bo`lishidadir. Masalan, maynalar faqat chigirtka bilangina emas, balki qo`y, qoramollar tanasidagi so`na va boshqa parazitlar hamda gilos, uzum va hamda qushlarning bolalari bilan oziqlanadilar. Tulkilar ham o`z navbatida faqat tovushqonlar bilan emas, balki sichqon, kirpi va qushlar bilan ham oziqlanadilar.

Bir turga kiruvchi organizmlar ortasidagi kurash Yuqoridagilardan farqli ravishda bir turga kiruvchi organizmlarning ozuqa, yashaydigan hudud va hayot uchun zarur bo`lgan boshqa omillarga nisbatan talabi o`xshash bo`ladi. Bir turga kiruvchi qushlar orasida urchish paytida uya qurish uchun joy tanlash bo`yicha raqobat ro`y beradi. Sutmizuvchi hayvonlar, qushlarda erkak organizmlar o`rtasida urg`ochi organizmlar bilan qo`shilish uchun kurash ketadi. G`o`za, bug`doy va boshqa o`simlik urug`lari zich ekilganda, ular orasida yorug`lik, namlik, ozuqa uchun raqobat kuzatiladi. Oqibatda ular nimjon bo`lib o`sadilar. Bir turga kiruvchi daraxtlar, butalar orasida ham bunday holat kuzatiladi. Shox-shabbasi keng quloch yozgan eng baland daraxtlar quyosh nurining ko`p qismini tutib qoladi. Ularning baquvvat ildiz sistemasi

tuproqdan ko`proq suv va unda erigan meniral moddalarni shimib oladi. Buning hisobiga qo`shni daraxtlar zaif bo`lib o`sadi yoki o`shidan to`xtab nobud bo`ladi.

Organizmlarning anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi kurashi.

Anorganik tabiat omillari organizmlarning rivojlanishiga, yashab qolishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Kuz kelishi bilan bir yillik o`simliklarning hammasi, shuningdek, ko`p yillik daraxtlar, yumronqoziqlar, yomq`ir chuvalchanglari, qushlar orasida ham nobud bo`lgan organizmlarni ko`rish mumkin. Qishda suv usti qalin muz bilan qoplanishi tufayli suvda erigan kislorodning kamayishi hisobiga baliqlar ham halok bo`ladi. Cho`l o`simliklarining ko`plab nobud bo`lishi namlikning etishmasligi oqibatidandir. Tirik majvudodlar anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga bardosh bergandagina yashab qolishi va nasl berishi mumkin.

Bir turga kiruvchi organizmlar orasida yashash uchun kurashning shiddatli bo`lishini e`tiborga olib, yangi bog`lar tashkil qilinayotganda mevali daraxtlarning turiga qarab ko`chatlar ma`lum oraliqda ekiladi. Sun`iy yo`l bilan o`rmonlar barpo etilayotganda mikorizasi bo`lmagan tuproqqa mikoriza – zamburug` giflari solinadi. Mikoriza daraxt ildizlariga kirib olib, uni tuproqdagi nam va oziq moddalar bilan ta`minlaydi. Bu dub, qayin, buk kabi daraxtlarning normal o`shishiga yordam beradi. Respublikamizdagi ko`llar, suv havsalaridagi baliqlarni sun`iy yo`l bilan urchitish uchun avvalo ular yirtqich va uncha ahamiyati bo`lmagan baliqlardan tozalanadi. Shundan keyin suv havzalarida xo`jalik uchun ahamiyatli hisoblangan baliqlar ko`paytiriladi. Ovchilik xo`jaligini ilmiy asosda olib borish uchun hayvonlar biologiyasi, yani urchish davri, nasl miqdori, ularning voyaga etish muddati, nimalar bilan oziqlanishi, organizmlar orasidagi munosabatlar diqqat markazida bo`ladi.

Yirtqich hayvonlar – bo`ri, tulkilar yo`qotilayorganda ularning sanitarlik roli – o`ljalar orasidan nimjon, kasal individlarni ko`plab yo`qotishi hisobga olinadi.

Madaniy o`simliklarga qaraganda yovvoyi o`simliklar yashovchan bo`ladi. Ular madaniy o`simliklarning rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatmasligi uchun o`tov qilinib, begona o`tlardan halos etiladi. Zararkunanda hasharotlar – xasva, olma qurti, ko`sak qurti, shira va h. k. larga qarshi kurashda mikrofanus, oltinko`z, trixogramma, afelinus, tugmacha qo`ng`izlar, endobakteriyalar tarqatadi. Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashga hashorotxo`r qushlar, chunonchi, chug`urchuq, chittak va boshqalar jalb qilinadi. Chetdan changlanuvchi o`simliklardan yoqori hosil olish uchun asalaridan foydalaniladi.

11-Seminar mashg`uloti

Mavzu: Turlarning paydo bo`lishi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *Munozara, blits-so`rov*

Biologik tur haqida mulohaza yuritish uchun bu atamaning tub mohiyatini aniqlab olish darkor. Hozirgi paytda biologiya fanida **tur** deyilganda morfologik jixardan nisbatan o`xshash, kilib chiqishi bir, o`ng`aylik bilan o`zaro chatishib ko`payadigan alohida organizmlar majmuasini tur sifatida talqin qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, hamma organizmlar ham jinsiy yo`l bilan ko`payavermaydilar. Tabiatda jinssiz yo`l bilan ham ko`paya oladigan organizmlar ham mavjud. Bundan tashqari qadimgi eralarda yashab o`lib ketgan turlar bor. Bulardan ma`lum bo`ladiki, barcha organizm turlarining o`ziga xos belgi-xossalari qamrab olgan tur ta`rifi biologiya fanida hali yaratilmagan. Shuning uchun amaliyotda organizm turlarini bir-biridan farqlantirishda tur mezonlaridan foydalaniladi.

Tur mezonlari. Turga mos belgi-xossalari yig`indisi *tur mezonlari* deb ataladi. Tur mezonlari tubandagilar:

Morfologik mezon. Morfologik mezon bir turga kiruvchi individlarning tashqi va ichki tomonidan o`xshashligini ifodalaydi. Qora qarg`a va ola qarg`a har xil turlarga mansub. Ularni siz tashqi tomondan farqlay olasiz. Bir turga kiruvchi organizmlar ham ba`zi belgi-xossalari bilan o`zaro farq qiladi. Lekin ulardagi farq har xil turga kiruvchi organizmlar farqiga nisbatan juda kam bo`ladi. Shu bilan bir qatorda tashqi tomondan bir-biriga juda o`xshash, lekin o`zaro chatishmaydigan turlar ham uchraydi. **Ular qiyofadosh turlar** deyiladi. Chunonchi, drozofilada 2ta, bezgak chivinida va qora kalamushda ham 2 ta qiyofadosh turlar ma`lum. Qiyofadosh turlar suvda hamda quruqlikda yashovchilar, reptiliyalar, qushlar, hatto sutemizuvchilarda ham aniqlangan. Binobarin, morfologik mezon uzoq vaqt turlarni aniqlashda asosiy va yagona hisoblanadi.

Fiziologik mezon. Bu turga kiruvchi individlarda hayotiy jarayonlar, ayniqsa ko`payishning o`xshashligi bo`ladi. Har xil tur vakillari bir-biri bilan chatishmaydi, chatishsa ham nasl bermaydi. Turlarning chatishmasligi jinsiy organlar tuzilishidagi farqlar, ko`payish muddatlarining turlicha bo`lishi va boshqa xossalari bilan izohlanadi. Lekin tabiatda ayrim turlar, masalan, kanareykalar, terak va tollar, tovushqonlar o`zaro chatishishi va nasl berishi mumkin. Bu o`z-o`zidan fiziologik mezon ham turlarning bir-biridan farq qilishi uchun yetarli emasligini ko`rsatadi.

Biokimyoviy mezon. Har xil turga kiruvchi organizmlar, o`zining kimyoviy tarkibi, oqsil, uglevod, peptidlar, nuklein kislotalar va boshqa organik moddalari bilan farq qiladi. Lekin asosiy farq har bir tur uchun xos irsiy material DNK molekulari va hujayradagi oqsillarning sifati va miqdorining o`ziga xosligidadir. Organizmlarning qaysi turga kirishini aniqlash uchun ulardagi nuklein kislotalari farqini belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lishi mumkin.

Geografik mezon. Tur tarqalgan hudud katta yoki kichik, har joyda yoki yoppasiga bo`lishi mumkin. Ba`zan esa ikki, uch turning areali o`xshash bo`lishi yoki ba`zi turlarning ishg`ol qilgan areali nihoyatda keng maydonni egallashi mumkin. Bu

esa o`z navbatida geografik mezon boshqa mezonlar kabi turning o`ziga xos belgisi bo`la olmasligidan guvohlik beradi.

Ekologik mezon. Mazkur mezon ostida har bir turga kiruvchi organizmlarning konkret muhit sharoitida yashashi, unga moslashganligini tushunish lozim. Masalan, dalalar, o`tloqzorlarda zaharli ayiqtovon, sernam yerlarda sudraluvchi ayiqtovon, daryo, ko`lmak chetlarida, botqoqliklarda achishtiradigan ayiqtovon turlari uchraydi.

Genetik mezon. Bu mezonda har bir turga xos xromosomalar soni, shakli, tuzilishi, maxsus bo`yoqlar bilan bo`yalishi tushuniladi. Qora kalamushning ikkita qiyofadosh turning birida 38 ta ikkinchisida 42 ta xromosoma bor. Genetik mezon barqaror bo`lsa-da, bu o`xshashlik nisbiy sanaladi. Chunki tur ichida xromosomalar soni va tuzilishida farq bo`lishi, har xil turlarda esa xromosomalar soni teng bo`lishi mumkin. Masalan, karam va turpda 18 tadan xromosoma bor.

Yuqorida qayd qilingan mezonlardan birontasi ham har yoqlama hisoblanmaydi. Shu bois turlarni aniqlashda ularning hammasidan yoki ko`pchiligidan foydalanish talab qilinadi.

Politipik turlar. Har bir o`simlik, hayvon turi bir-biridan ozmi-ko`pmitafovut qilgan individlardan tarkib topgan. Masalan, G`afurov ma`lumotlariga ko`ra Xumson qishlog`idagi yeti nuqtali tugmachaqo`ng`iz tekshirilganda ular tanasining uzunligi 5,5 mm dan 8mm gacha rangi och jigarrangdan tortib to to`q jigarranggacha, qora dog`larining kattaligi va shakli bilinear-bilinmasdan to aniq ifodalangan dog`largacha bo`lishi aniqlangan. Shunga o`xshash kartoshka o`simligining zararkunandasi bo`lgan kolorado qo`ng`izi Toshkent atrofidagi tumanlarda yirikroq, Qozoqistonning Taraz dalalarida esa nisbatan maydaroq ekanligi ma`lum bo`lgan. Bunday nisbatan xilma-xillikni boshqa o`simlik, hayvon turlarida ham ko`rish mumkin. Binobarin, har bir tur politipik hisoblanadi.

Darvin turlarning paydo bo`lishi haqida. Darvin taniy tanlanish nazariyasi bilan faqat moslanishlardagina emas, balki yangi turlarning paydo bo`lishini ham tushuntirib berdi.

Turlarning paydo bo`lishini tushuntirishda ikkita qiyinchilik uchraydi: ulardan biri tur paydo bo`lishining uzoq muddatli ekanligi va tajribada o`rganishning qiyinligi bo`lsa, ikkinchisi – tur paydo bo`lishining har xil organizmdagi turlicha bo`lishi bilan izohlanadi. Yahsash shroitining o`zgarishi bilan tabiiy tanlanish tufayli bir turga mansub organizmlar individual farqlar tobora ortib borib, tur doirasida belgilarning tarqalishiga olib keladi. Oqibatda bir tur doirasida bir-biridan belgi-xossalari bilan farq qiluvchi bir necha guruhlar hosil bo`ladi. Albatta, yashash uchun kurash ko`pgina xollarda oraliq formalarining sekin-asta kamayib, qirilib ketishiga, o`zgargan muhitga moslashganlarining esa yashash qolishiga sababchi bo`ladi. Buning oqibatida tarixiy jarayonda bitta avlod tur bir necha yangi turlarni vujudga keltirishi mumkin. Darvin

ta'limotiga binoan yangi turlar tabiatda organizmlarda paydo bo'lgan kichik o'zgarishlarni bo'g'indan-bo'g'inga irsiylanib, to'planib borishi hisobiga vujudga keladi. Bir tur doirasidagi organizmning har xil sharoitga, muvofiqlashuvi natijasida bir necha turlar hosil bo'ladi. Bir turdan ma'lum tarixiy jarayonda bir necha turlarning paydo bo'lishini darvin ajdod tur belgilarning tarqalishi – *divergensiya hodisasi* deb nomladi. Ayrim hollarda bir tur asta-sekin o'zgarib, boshqa turga aylanadi. Turlarning son jixatdan ko'paymay o'zgarib, E, F turlarning E, F turlariga aylanganligi bunga misol bo'la oladi.

Yangi turlarning paydo bo'lish yo'nalishlari. Darvindan so'ng klassik darvinizm bilan genetika, ekologiya, sistematika va boshqa tabiiy fanlarning birlashishi natijasida biologic tur, uning tarkibi, yangi turlarning paydo bo'lishi to'g'risida ko'p ma'lumotlar to'plandi. Bu ma'lumotlarning ko'rsatishicha har qanday biologic tur politipik tuzilishga ega ekanligi, ya'ni bir-biridan ozmi-ko'pmi morfologik, fiziologik, ekologik, genetik jihatdan farq qilgan individlardan tashkil topganligi yanada oydinlashdi. Bundan tashqari turlar o'zaro egallagan areali, populyatsiyalar soni bilan farqlanishi ma'lum bo'di. Odatda keng arealda tarqalgan turlarda populyatsiyalar soni ko'p, tarqoq arealdagilarda esa kam bo'ladi. Har qanday tur genofondi yagona, bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan genlar, xromosomalar majmuasidan tuzilgan. U shu turga mansub organizmlarni tashqi muhitga moslashishini ta'minlaydi. Yangi turning paydo bo'lishi ajdod turning yagona, o'zaro bog'liq bo'lgan genlar, xromosomalar majmuasini buzib, yangi genofondini vujudga keltirish orqali amalga oshadi.

Hozirgi davrda yangi turlar paydo bo'lishining uch yo'nalishi e'tirof etiladi.

Allopatrik yo'nalish yoki geografik alohidalanish bilan turning paydo bo'lishi. Bunda bir turga kiruvchi populyatsiyalar geografik jihatdan alohidalashadilar. Natijada ularning shu turga mansub boshqa populyatsiyalar bilan aloqasi barham topadi. Populyatsiyalarning geografik alohidalanishi odatda tur egallangan arealning chetki qismlarida ko'proq ro'y beradi. Populyatsiyalar egallab turgan arealning bir-biridan uzoq masofada ekanligi yoki ikki populyatsiya o'rtasida suv, quruqlik, to'siqlar, baland tog'laring hosil bo'lishi geografik alohidalanishga olib keladi. Bunday hollarda turning biror populyatsiyasi bilan shu turga kiruvchi boshqa populyatsiyalari orasidauzoq vaqt aloqa bo'lmaydi, deb faraz qilaylik. Mazkur populyatsiyaga qo'shni populyatsiyalarning individlari kelib qo'shilmaganligi sababli, uning genofondi endilikda mustaqil bo'ladi. Albatta, shu turga kiruvchi boshqa populyatsiyalardagi kabi ushbu populyatsiyada ham yangi mutatsiyalar ro'y beradi. Ular orasida tabiiy tanlanish shu sharoitga mos allellarni to'play boradi. Populyatsiyada uzoq muddat davom etgan geografik alohidalanish pirovard natijada biologic alohidalanishga, ya'ni shu turga mansub individlarning boshqa populyatsiyalar tarkibidagi individlar bilan chatishmasligiga olib keladi. Geografik alohidalanish tufayli yangi turlarning paydo bo'lishiga oid misollar nihoyatda ko'p. Masalan, Baykal ko'lida moluskalar,

qisqichbaqasimonlar, baliqlar, chuvalchaglarning boshqa joylarda uchramaydigan juda ko'p turlari uchraydi. Chunki 20 mln yil ilgari Baykal ko'li boshqa suv havzalaridan tog'lar hosil bo'lishi natijasida ajralib qolgan. Shuningdek. Sirdaryo, Amudaryoda yashovchi soxta kurakburun baliq turi ham geografik alohidalanish natijasi hisoblanadi. U qadimgi oseotrsimon baliqlarga kiradi. Unga yaqin bo'lgan baliq turlari Shimoliy Amerikaning Missisipi daryosida yashaydi.

G'o'za avlodi ham geografik alohidalanish yo'nalishidagi turning paydo bo'lishiga yorqin misoldir. Bu avlodning turlari bo'r davridan boshlab bir-biridan alohidalashgan va Amerika, Osiyo, Afrika, Avstraliyaga tarqalgan.

Simpatik yo'nalishdagi turning paydo bo'lishi. Ba'zan ajdod tur areali doirasida alohidalanish kuzatiladi. Alohidlashgan populyatsiyalar ajdod tur bilan bir arealda tarqalgan bo'ladi. Odatda alohidlashgan individlar guruhi ajdod tur vakillaridan urchish muddati yoki yashash joyi yoxud jinsiy jihatdan tafovut qilishi bilan ajralib turadi. Shunday usulda alohidlashgan populyatsiyalardan keyinchalik mutatsion o'zgaruvchanlik, tabiiy tanlanish tufayli yangi turlar paydo bo'ladi. Chunonchi, Filippinda 10 ming yil oldin paydo bo'lgan Lanao ko'lida yagona bitta avlod baliq turidan simpatik yo'nalish bilan 18 ta baliq turi, yonsuzar qisqichbaqasimon turkumining bir avlod turidan 250 ta yangi tur paydo bo'lgani ma'lum. Shu singari simpatik yo'nalishdagi yangi turlarning paydo bo'lishi ekologik alohidalanish natijasi ekanligidan dalolat beradi.

Poliploidiya yo'nalishida turlarning paydo bo'lishi. Mutatsion o'zgaruvchanlikning bir xili xromosomalar sonining o'zgarishi bilan aloqador. Ba'zi hollarda hijayra mitoz usuli bilan bo'linayotganda tashqi muhitning ta'sirida xromosomalar ikkita qiz hujayraga notekis taqsimlanadi. Natijada bir hujayra yadrosida bitta yoki ikkita hujayra ortiqcha, ikkinchi hujayra yadrosida esa kam bo'ladi. Xromosoma sonining ortishi yoki kamayishi ayrim hollarda yangi turlarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Masalan, mukakkab guldoshlar oilasiga kiruvchi skerda avlodida 3,4,5,6,7 xromosomali, iloq avlodida 12 dan 43 tagacha bo'lgan xromosomali turlari uchraydi. Xromosomalar sonining ortishi yoki kamayishi natijasida kelib chiqqan turlar ***aneuploid turlar*** deb nomlanadi.

Tur tarqalgan arealning chetki qismlaridan kuzatiladigan ba'zi noqulay sharoitlar tufayli ayrim hollarda hujayraning bo'linish dukida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida xromosomalarni hujayraning ikki qutbga tarqalmay qo'shilishiga sabab bo'ladi. Shu bois ona hujayra xromosomalarining soni ikki martaga ko'payadi. Masalan, g'o'zaning 26, 52 xromosomalari turi mavjud. Eski tur xromosomalar turning ikki karra emas, ba'zan bir necha karra o'zgarishlari hollari ham uchraydi. Chunonchi, xrezantema avlodiga kiruvchi 18,36,90 xromosomali, tamaki avlodiga 24,48,72, bug'doyda, 14,28,42 xromosomali turlar borligi aniqlangan. Xromosomalar ***sonining karra ortishi*** bilan bog'liq turlar ***poliploid*** turlar nomini

olgan. Poliploid turlar xromosomasi diploid to'plamga ega turlarga nisbatan muhitning noqulay sharoitlariga ko'proq moslanuvchan bo'ladi.

Yangi turlarning duragaylash yo'li bilan kelib chiqishi. Ba'zi bir o'simliklar turlari duragaylash yo'li bilan paydo bo'lgan. Chunonchi, olxo'ri olcha bilan tog'olchanning chatishishidan so'ng xromosomalar sonining ikki hissa ortishi natijasida kelib chiqqan. Olchada xromosomaning gaploid to'plami 16, tog'olchada esa 8, demak, ularda hosil bo'lgan duragaylarda xromosomaning gaploid to'plami 24 ga teng. Lekin duragay pushtsiz bo'lgan, eksperimentda xromosomalar sonining ikki marta ortishi tufayli bunday duragaylar nasl bergan. Natijada yangi tur paydo bo'lgan. Xuddi shu usulda g'o'zaning yangi dunyo poliploid turlari ham kelib chiqqan. Olimlarning fikricha, xromosomaning gaploid to'plami 13 bo'lgan xerbatseum turini boshqa 13 xromosomalari turi bilan o'zaro chatishib, so'ng duragay xromosoma to'plamining ikki hissa ortishi hisobiga 52 xromosoma to'plamiga ega bo'lgan xiezutum, barbadenze g'o'za turlari kelib chiqqan deb faraz qilinadi. Yangi turlarning paydo bo'lishi har xil usul bilan amalga oshgan.

12-Seminar mashg'uloti

Mavzu: O'simlik va hayvonot dunyosining evolyutsiyasi
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, blits-so'rov*

Biologik evolyutsiyada dastlabki sodda prokariotlardan murakabro tuzilgan prokariotlar simbiogenez yo'li bilan vujudga kelgan. Yer yuzidagi birinchi fotosintez iluvshi organizmlar tsianeyalar hisoblanadi. Tsianeyalarning paydo bo'lishi bilan tirik olam o'simlik va hayvonot yo'nalichida rivojlanishga ajralgan. O'simliklar evolyutsiyasining asosiy yullari. O'simliklar evolyutsiyasi dastlabki fotosintezlovshi organizmlar tsianeyalardan boshlangan. Dastlabki prokariotlar va tsianeyalardan simbiogenoz yo'li bilan dastlabki o'simliklar shakllangan. Bu jarayon arxey erasida yuz bergan. Proterozoy erasida yashil va boshqa suvo'tlari rivojlangan. urulikda esa bir xujayrali organizmlar – bateriyalar, tsianeyalar hamda abiotik omillar ta'sirida emirqilishi va tupro xosil bo'lish jarayonlari sodir bo'lgan. Poleozoy erasining silur davrida o'simliklar urulikka shian, psilofitlar paydo bo'lgan. Suvda esa suv tubiga birikib o'sadigan yashil va ungir suvo'tlari, suv atlamida esa diatom, tillarang, izil va boshqa suvo'tlari rivojlangan. O'simliklar evolyutsiyasining dastlabki bosishlaridayo avtotrof va getyerotrof o'simliklar mavjud bo'lgan. Silur davrida urulikda psilofitlar rivojlangan. Psilofitlar tanasi vegetativ organlarga bo'linmagan. urulikda o'simliklar evolyutsiyasining dastlabki bosishlarida arxegonial formalar (moxsimonlar, paparotniksimonlar, oshi uruglilar) vujudga kelgan. YOpi uruglilar qadimgi oshi urugli o'simliklardan kelib shian. qadimgi yopi uruglilar magnoliyadoshlar bilan ko'prok yainro. YOpi uruglilarning dastlabki vatani tropik mamlakatlardir. O'simliklar evolyutsiyasining asosiy xususiyatlari: 1) Gaploidiyadan diploidiyaga o'tish; 2) Jinsiy ko'payishning takomilashuvi, ishki va o'sh uruglanishga o'tish; 3) Tananing organlarga tabaqalashuvi; 4) SHanglanish va uruglar taralishini ixtisoslashuvi.

Hayvonot olamining evolyutsiyasi. Arxey erasi oxirida bir xujayrali organizmlardan ko'p xujayrali organizmlar shakllangan. Proterazoy va paleozoy erasida dengizda umor'tasiz hayvonlar rivojlangan (jumladan korallar, molyuskalar). Silur davrida havo bilan nafas oluvshi hayvonlar paydo bo'lgan. Devon davrida ikkiyolama nafas oluvshi, panjaanotli va nursimon anotli balilar rivojlangan. Nursimon anotli balilardan hozirgi suyakli balilar panjaanotli balilardan dastlabki amfibiyalar stegotsellar shakllangan. Bu davrda hasharotlar ham paydo bo'lgan.

Toshko'mir davrida sudralib yuruvshilar vujudga kelgan. Pyerm davrida primitiv reptqiliyalardan pelikozavrlar rivojlanadi, ulardan esa keyingi davrlarda terapsid, undan esa sut emizuvshilar rivojlangan. YUra davrida reptqiliyalarning bir tarmogidan arxeopteriks, ulardan esa ushlar rivojlangan. Mezazoy erasida sudralib yuruvshilardan dengiz reptqiliyalari (ixtiozavrlar, pleziozavrlar), havoda ptyerodaktlar, urulikda gigant dinozavrlar taralgan. Kaynazoy erasida hasharotlar, ushlar va sut emizuvshilar rivojlanadi. Hayvonlar evolyutsiyasida quyidagi asosiy rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin: 1) Ko'p xujayraliklarning paydo bo'lishi va organlarning tabaqalashuvi; 2) qattiq skeletning paydo bo'lishi; 3) Markaziy nerv sistemasining rivojlanishi; 4) Hayvonlarning bir qator evolyutsion tarmolarida sotsial xususiyatlarning rivojlanishi.

13-Seminar mashg'uloti

Mavzu: Eralarda hayotning rivojlanishi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, blits-so'rov*

Arxey erasi 900 mln yil davom etgan. Eraning qatlamlari dastlabki o'zidan hech qanday hayot izlarini qoldirmagan. Bunga asosiy sabab cho'kindi qatlamlarning yuqori harorat va bosim ta'sirida ko'rinishining o'zbarib ketishidir.

Organik birikmalardan oxaktosh, marmartosh, ko'mirli moddalarning bo'lishi arxey erasida tirik organizmlar, bakteriyalar, ko'k-yashil suv o'tlari bo'lganligidan dalolat beradi.

Arxeyning keyingi qatlamlaridan kolonial suvo'tlari ham topilgan. Arxeyning tog' jinslarida ko'proq grafitlar uchraydi. Ular mikroorganizmlardagi organik birikmalarning tarkibiy qismi sanaladi. Ibtidoiy mikroorganizmlarning yerosti boyliklari-ohaktosh, tog' jinslaridagi temir, nikel, marganes, oltingugurt, neft va gazlarni hosil etgan. Arxey erasining ikkinchi yarmida fotosintez, jinsiy ko'payish: ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lgan.

Ptoterazoy erasi 2000 mln yil davom etgan. Arxeyning oxiri, proterazoyni boshlarida kuchli tog' hosil bo'lish jarayonlari ro'y bergan. Natijada ko'pgina quruqliklar hosil bo'lgan. Bu erada bakteriyalar, suvo'tlari avj olib rivojlangan. Ayniqsa, yashil, qo'ng'ir, qizil suvo'tlarining hosil bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qirg'oqqa yaqin joyda hayot kechiruvchi suvo'tlarida tana tabaqalashib, uning

bir qismi substratga – biron sirt yuzasiga joylashib, boshqa qismi esa fotosintezning amalga oshishiga moslashgan.

Hayotning rivojlanishi Yer qobig'ining shakli va tarkibining o'zgarishiga olib keladi. O'simliklar fotosintetik faoliyati natijasida atmosferadagi karbonad angidridni o'zlashtirib, kislorod ajratib chiqargan. Havo va suvning kislorod bilan to'yinishi oqibatida aerob organizmlar paydo bo'lgan. Proterazoy oxiriga kelib ko'p hujayrali organizmlar: suvo'tlari, kovakichlilar, halqali chuvalchanglar, moluskalar, bo'g'imoyoqlilar va umurtqasizlarning boshqa ko'pgina tiplari ham rivojlanadi.

Hayvonlarning aksariyat ko'pchiligi ikki yoqlama simmetriyali bo'lgan. Bu ularning tanasini oldingi va keying, yelka va qorin qismlariga bo'linishiga olib keldi. Oldingi qismida sezuv organlari, nerv tugunlari bo'lib, hayvonlarning yelka tomoni esa himoya qilish funksiyasini bajardi, qorin tomoni harakatlanish va oziq tutishni ta'minladi. Bularning hammasi hayvon fe'l-atvorini, harakatchanligini, chaqqonligini, hayot faoliyatini o'zgartirishga sabab bo'ldi.

Proterazoy erasining oxiriga kelib dastlabki xordali hayvonlar – bosh skeletsizlar kenja tipi paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Xorda mushaklar uchun tayanch vazifasini bajargan. Keyinchalik nafas olish organi – jabra rivojlangan. Ularning hammasi organik olamning kelgusida yanada takomillashtirish uchun asos bo'lgan.

Paleozoy erasi 340 mln yil davom etgan. Mazkur era hayotning bir muncha xilma-xilligi, takomillashuvi bilan ta'riflanadi. Shu eradan boshlab eukariot organizmlar tanasida, skelet hosil bo'lib, paleontologik solnimasining to'liq va izchil bo'lishiga imkon bergan.

Kembriy davrida iqlim mo'tadil bo'lib, o'simlik va hayvonlar dengizda tarqalgan. Ularning ba'zilari o'troq, ba'zilari suv oqimi bilan harakatlangan. Hayvonlardan ikki palla chig'anoqli, qorinoyoqli, boshoyoqli moluskalar, halqali chuvalchanglar, trilobitlar keng tarqalgan va faol harakatlangan. Umurtqali hayvonlardan dastlabki vakillari – qalqondor baliqlar yashagan, ularda jag' bo'lmagan. Qalqondorlar hozirgi davrda yashayotgan to'garak og'izlilar, minogalar, miksinalarning uzoq ajdodi hisoblanadi.

Turkiston, Oltoy, Zarafshon tog' tizmalaridan kembriy davriga xos soda hayvonlar, bulutlar, kovakichlilar, qisqichbaqalar, ko'k – yasil, yshil suvo'tlari topilgan. Hisor tog' tizmalarida esa quruqlikda yashovchi o'simlik sporalari uchrashi aniqlangan.

Ordovik davrida dengizlar satxi ortib, unda yashil, qo'ng'ir, qizil suv o'tlari, boshoyoqli, qorinoyoqli moluskalarning xilma-xilligi ortadi.

Korall giflarining hosil bo'lishi avj oladi. Bulutlar hamda ba'zi bir bir ikki palla chig'anoqli moluskalarning turli-tumanligi kamayadi.

Silur davrida tog' hosil bo'lish jarayonlari kuchayib, quruqlik sathi ortadi. Iqlim nisbatan quruq bo'ladi. Boshoyoqli moluskalar nihoyatda ko'payadi. Davr oxiriga

kelib qisqichbaqa chig'anoqlar rivojlanadi. Qirg'oq yaqinidagi suvlarda tarqalgan ko'p hujayrali yashil suvo'otlarining ba'zilar yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish tufayli quruqlikka chiqishga muvaffaq bo'ladilar. Tuproq dastlabki quruqlikdagi o'simlik-psilofitlarning tarqalishiga imkon bergan. Tuproqda organik birikmalarning to'planishi keyinchalik zamburug'lar paydo bo'lishi uchun imkon yaratgan. Markaziy Osiyoda kuchli vulqonli jarayonlar ro'y bergan. Iqlim iliq bo'lgan. Zarafshon tog' tizmalarida kovakichli hayvonlar bilan past bo'yli pselofitning toshga tushgan tasviri topilgan.

Devon davrida dengizlar sathi kamayib, quruqlik ortishi, bo'linib ketishi yanada davom etgan. Iqlim mo'tadil bo'lgan. Quruqlikning ko'pgina qismi dasht, yarim dashtga aylangan. Dengizlarda tog'ayli baliqlar rivojlanib, "qalqondor" baliqlar yashash uchun kurashda kamaya borishi ro'y bergan. So'ngra suyakli baliqlar kelib chiqqan. Sayoz havzalarda ikki yoqlama hafas oluvchi baliqlar, panjaqanotli baliqlar rivojlanlan. Panjaqanotli baliqlarning ayrim vakillari – latimeriya tirik "qazilma" sifatida hozir ham Janubiy Afrika, Madagaskar qirg'oqlaridagi suvlardan topilgan. Bu davrda balant bo'lib o'suvchi paporotniklar, qirqbo'g'img'lar, plaunlardan dastlabki o'rmonlar hosil bo'ladi. Bo'g'imoyoqli hayvonlarning ayrim guruhlari havo bilan hafas olishga o'tishi tufayli ko'poyoqlilar va dastlabki hasharotlar rivojlanadi.

Devon davrining o'rtalariga kelib panjaqanotli baliqlarning ayrim guruhlari quruqlikka chiqqan. Natijada suv hamda quruqlikda yashovchilarning dastlabki turlari vujudga kelgan.

Toshko'mir davrining boshlarida Markaziy Osiyoning ko'p hududi suv bilan qoplangan. Davrning oxirida Amudaryo va Sirdaryo oralig'i Orol dengizi o'rnida va uning sharq tomonida dengiz chekinib, keng quruqlik hosil bo'ladi. Quruqlikdagi sporali o'simliklar orasida baland poyali lepidodentronlar, plaunlar, kalamitlar ko'plab o'sgan. Ayrim kalamitlarning balandligi 20 -25 m ga yetgan. Onda-sonda dastlabki ochiq urug'lilardan kordaitlar ham uchragan.

Toshko'mir davrida iqlim nam, havoda karbonad angidrid ko'p bo'lgan. Quruqlikdagi pasttekisliklarda botqoqlik yerlar ko'p uchragan. Ularda balandligi 40 m ga yetadigan paporotniklar, qirqbo'g'inlar, plaunlar o'sgan va spora yo'li bilan ko'paygan. Bulardan tashqari ochiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan. Daraxtsimon o'simliklarning yoppasiga halok bo'lishi o'sha joylarda keyinchalik ko'mir qatlami hosil bo'lishiga olib kelgan. Suv hamda quruqlikda yashovchilarning dastlabki vakillari hisoblangan stegotsefallar nihoyatda ko'p hamda xilma-xil bo'lgan. Uchuvchi hasharot – suvaraklar, ninachilar rivojlangan.

Perm davrining boshlariga kelib iqlim birmuncha quruq va sovuq bo'lgan. Bunday sharoit suvda hamda quruqlikda yashovchilar uchun o'ta noqulay hisoblangan. Ularning anchagina ismi qirilib ketgan. Botqoqlik va sayozliklardagi suv hamda quruqlikda yashovchilarning ancha mayda vakillari yashirinib qolgan. Quruq va past haroratli sharoitda yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish suv hamda quruqlikda

yashovchilarning ma'lum guruhining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Keyin ulardan sudraluvchilar sinfining vakillari kelib chiqqan.

Perm davrining boshlarida Qizilqum, Farg'ona, Pomir tog'larida yirik orollar va yarim orollar bo'lgan. O'simliklardan klamitlar, daraxtsimon kordaitlar, ba'zi ninabargli o'simliklar uchragan.

Shunday qilib, paleozoy erasida hayvonlar yanada rivojlanib, yirik aromorfozlar ro'y bergan: jag'siz qalqondor baliqlar, baliqlar, panjaqanotli baliqlar, suvda hamda quruqlikda yashovchilarning dastlabki vakillari, nihoyat sudralib yuruvhchi hayvonlar kelib chiqqan. O'simliklar quruqlikka chiqib, spora yo'li hamda urug' bilan ko'payuvchi xillari, so'ng ochiq urug'lilar paydo bo'lgan.

Mezazoy erasi 175 mln yil davom etgan. **Trias** davrida iqlim quruq kelgan. O'rmonlar ochiq urug'lilar, ninabargli o'simliklar, sagovniklar, qisman sporali o'simliklar – paporotniklar, qirqbo'g'inlilardan iborat bo'lgan. Quruqlikda sudralib yuruvchilarning xilma-xilligi ortgan. Ularning keyingi oyoqlari oldingisiga nisbatan kuchli rivojlangan. Hozirgi vaqtda yashab turgan kaltakesak, toshbaqalarning ajdodlari ham shu davrda paydo bo'lgan. Trias davrida ayrim hududlar quruq va sovuq bo'lgan. Oqibatda yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish natijasida ba'zi bir yirtqich sudralib yuruvchilar tarixiy jarayonda o'zgarish tufayli tanasi kalamushdek dastlabki sutemizuvchi hayvonlar kelib chiqqan. Taxmin qilinishicha, ular hozirgi o'rdakburun yexidnalar singari tuxum qo'yib, ko'payadi.

Yura davrida iqlim issiq van am bo'lgani uhun daraxtsimon o'simliklar avj olib rivojlangan. O'rmonlarda ilgarigidek ochiq urug'lilar va paporotniksimonlar hukmronlik qilgan. Ularning ba'zilar, ya'ni sekvoyalar hozirgi vaqtgacha yetib kelgan. Shu davrda paydo bo'lgan dastlabki gulli o'simliklarning tuzilishi anchagina ibtidoiy bo'lgan va keng tarqalmagan. Sporali va ochiq urug'li o'simliklarning gurkirab rivojlanishi natijasida o'txo'r sudralib yuruvchi hayvonlar tanasi nihoyatda yiriklashgan. Ba'zilarining tanasi 20 – 25 m ga yetgan. Sudralib yuruvchi hayvonlar faqat quruqlikda emas; balki suv, va havo muhitiga ham tarqalgan. Havoda uchar kaltakesaklar keng o'rin olgan. Arxeopterikslar shu davrda paydo bo'lgan.

Bo'r davrida iqlim keskin o'zgargan. Osmonni qoplagan bulutlar juda kamayib, atmosfera quruq va shaffof bo'lgan. Quyosh nurlari to'g'ridan to'g'ri o'simlik barglariga tusha boshlagan. Iqlimning bunday o'zgarishi ko'pgina paporotniksimonlar va ochiq urug'lilar uchun noqulay bo'lgan va ular kamaygan. Yopiq urug'li o'simliklar esa aksincha, ko'paya boshlagan. Bo'r davrining o'rtalariga kelib yopiq urug'li o'simliklarning bir urug'pallali, ikki urug'pallali sinflarining ko'p oilalari rivojlangan. Ularning xilma-xilligi, tashqi qiyofasi ko'p jihatdan hozirgi zamon florasiga yaqinlashgan. Quruqlikda sudralib yuruvchilar sinfi hali ham o'z hukmronligini saqlab qolgan. Yirtqich, o'txo'r sudralib yuruvchilar tanasi kattalashgan. Ularning ustki qismi qalqonlar bilan himoyalangan. Qushlar tishli bo'lib, boshqa xossalari bilan hozirgi

zamon qushlariga o'xshagan. Bo'ning ikkinchi yarmida suremizuvchilarning xaltali va yo'ldoshli kenja sinf vakillari paydo bo'lgan.

Kaynazoy erasi 70 mln yil davom etgan. Kaynazoy gulli o'simliklar, hasharotlar, qushlar, sutemizuvchi hayvonlar avj olib rivojlangan eradir.

Uchlamchi davrning davrning boshlarida iqlim issiq van am bo'lgan.

Tropik va subtropik o'simliklar keng tarqalgan. Dasht o'rtalarida iqlim quruq va mo'tadil, oxirida esa keskin sovigan. Iqlimdagi bunday o'zgarishlar o'rmonlarning kamayishiga, o't o'simliklar-ning paydo bo'lishiga va keng tarqalishiga olib kelgan. Hasharotlar sinfi avj olib rivojlangan. Ular orasida gulli o'simliklarning chetdan changlanishinita'minlaydigan, shuningdek, o'simlik nektaridan oziq oladigan yuksak vakillari paydo bo'lgan. Sudralib yuruvchi hayvonlar ham kamaygan. Quruqlikda, havoda qushlar, sutemizuvchilar, suvda esa baliqlar, ikkinchi marta suv muhitida yashashga moslashgan sutemizuvchilar uchragan. Davr oxiriga kelib qushlarning hozirgi paytda ma'lum bo'lgan ko'p ajdodlari rivojlangan. Davrning boshlarida sutemizuvchilarning xaltalilar kenja sinf vakillari keng o'rin olgan. Davrning oxiriga kelib yashash uchun kurashda yo'ldoshli sutemizuvchi hayvonlar ulardan ustun kelgan.

Yo'ldoshli sutemizuvchi hayvonlarning qadimgisi hasharotxo'rlar turkumi bo'lib, undan uchlamchi davr mobaynida yo'ldoshlilarning boshqa turkumlari, shu jumladan primatlar kelib chiqqan.

Uchlamchi davrning o'rtalarida odamsimon maymunlar rivojlanadi. O'rmonlarning qisqarishi bilan ba'zi odamsimon maymunlar ochiq yerlarda yashashga majbur bo'ladi. Ulardan keyinchalik dastlabki eng qadimgi odamlar kelib chiqqan. Ular kam sonli bo'lib, tabiatning halokatli voqealari, yirik yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun doimo kurashib kelganlar.

To'rtlamchi davrda Shimoliy muz okeani muzlarining bir necha marta janubga siljishi va orqaga chekinishi tufayli juda ko'p issiqsevar o'simliklar janubga, muzlik orqaga chekinishi bilan yana shimol tomon tarqaladilar. O'simliklarning bunday takroroy migratsiyasi (lotincha *migratio* – ko'chish) populatsiyalarining aralashib ketishiga, o'zgargan sharoitlarga moslasha olmagan turlarning halok bo'lishiga, shroitga moslashgan turlarning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan. To'rtlamchi davrga kelib odam evolutsiyasi tezlashadi. Mehnat qurollari yasash, ulardan foydalanish keskin ravishda takomilashadi. Odamlar atrof muhitni o'zgartirib, yashash uchun kurashib, qulay sharoit yaratishni o'rganib oladilar. Odamlarning son jihatdan orta borishi va keng tarqalishi o'simliklar va hayvonot olamiga ta'sit eta boshlaydi. Dastlabki ovchilar tufayli o'txo'r yovvoyi hayvonlar soni asta-sekin kamaya boradi. Yevropa va Osiyoda mamontlar, qalin yungli karkidonlar, Amerikada masrodontlar, ot ajdodlari, bahaybat yalqov, dengiz sigiri degan hayvonlar dastlabki ovchilar tomonidan qirilib yuboriladi. Yirik o'txo'r hayvonlarning qirilishi ular bilan oziqlanuvhchi g'or

arsloni, ayig'I va boshqa yirtqich hayvonlarning qirilishiga sababchi bo'ladi. Daraxtlar kesilib, ko'pgina o'rmonlar o'rni yaylovlar bilan almashinadi.

Oraliq formalar. Tuzilishiga ko'ra turli sinf belgilarini o'zida birlashtirgan organizmlar *oraliq formalar* deyiladi. Devon davrida yashagan panjaqanotli baliqlar, baliqlar suvda hamda quruqlikda yashovchilar orasida oraliq forma sanaladi. Arxeoptereks sudralib yuruvchilar bilan qushlar o'rtasidagi oraliq formadir. Teropsidlarning ba'zi vakillari sudralib yuruvchilar bilan sutemizuvchilar orasidagi oraliq forma hisoblanadi. Urug'li paporotniklar esa paporotniklar bilan ochiq urug'li o'simliklar orasidagi oraliq formadir. Oraliq formalarining mavjudligi ham organik dunyo tarixiy jarayonda o'zgarib borishini ko'rsatuvchi ishonchli dalildir.

14-Seminar mashg'uloti

Mavzu: Odamning paydo bo'lishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, blits-so'rov*

Odam yirik shaxar, osmono'par binolar, reaktiv samolyotlar, ulkan kemalar va boshqa ajoyibotlar ijodkori, yuqori ong, aql idrok egasi bo'lishiga qaramay uning gavda tuzilishi bilan murakkab hayvonlar gavda tuzilishida bir qancha o'xshashliklar bor. Odam skeleti sutemizuvchilar skeletiga juda o'xshash. Ularning har ikkida kalla suyagi, umurtqa pog'onasi, qo'l-oyoq skeleti bor. Diafragma parda tananing, ko'krak va qorin bo'shlig'ini bir-biridan ajratib turadi. Ko'krak qismida o'pka, yurak, qorin bo'shlig'ida esa me'da, ichaklar, jigar, bo'yрак va boshqa ichki organlar joylashgan. Odam va sutemizuvchi hayvonlar uch xil(jag, qoziq, kurak) tishlar, quloq suprasi borligi, o'rta quloqda uzangi, bolg'acha, sandon deb ataluvchi suyakchalar borligi, tananing yung bilan qoplanganligiga ko'ra o'xshashdir.

Odamdagi rudiment organlar va atavizm. Odamda bir qancha rudiment organlar uchraydi. Ulardan biri ko'richakning chugalchangsimon o'simtasi – appendiksning uzunligi 2-3 sm bo'lib, uning yallig'lanishi og'ir kasallik appendisitga sababchi bo'lgani uchun uni jarrohlik yo'li bilan kesib tashlaydilar. Dag'al oziq bilan oziqlanuvchi barcha hayvonlarda ko'richak, uning chugalchangsimon o'simtasi yaxshi rivojlangan. Me'dadagi hazm bo'lmagan oziq chugalchangsimon o'simtada hazm bo'ladi.

Umurtqali hayvonlarning ko'pchiligida dum bo'ladi. U tegishli vazifani bajaradi. Katta yoshdagi odam umurtqa pog'onasining pastki qismida to'liq rivojlanmagan 4-5 umurtqa bor. U dum suyagini tashkil etadi. Dum suyagi bir juft nerv va qisqarish faoliyatini yo'qotgan dum muskullariga ega. Odam hayotida dum hech qanday vazifani bajarmay, rudiment holatda saqlanib kelmoqda.

Sut emizuvchi hayvonlarda quloq suprasi tez harakat qiladi. Chunki, uni harakatlantiruvchi mahsus muskullari bor. Odamda bu muskullar va quloq suprasi rudiment holatdadir. Odam gavdasida ba'zan atavizm hodisasi ham ro'y beradi. Ayrim tug'ilgan bolalarda dum yoki tanani mayin yung bilan qoplanishi, qo'shimcha sut bezlari bo'lishi bunga yaqqol misoldir.

Odamning paydo bo'lishi – antropogenezda rol o'ynagan omillar nimalardan iborat degan savol tug'ilishi tabiiy. Darvin organik olam evolutsiyasining asosiy omillari irsiyat, o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanishni odam evolutsiyasiga tadbiiq etish mumkunligini ko'rsatib o'tdi.

Odamning paydo bo'lishida biologik omillar katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, biroq ularning o'zigina antropogenezni tushintirish uchun yetarli emas. Bu jarayonda biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynagan.

Maymunlar birdaniga tik yura boshlagan emaslar, atrof muhitning o'zgarishi – o'rmon sharoitidan ochiq yerda yashashga o'tish tufayli ayrim maymunlarda paydo bo'lgan mutatsion o'zgaruvchanlik – tik yurishga bir muncha layoqatli bo'lish yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish orqali million yillar mobaynida saqlanib, takomillashib borgan. Tik yurish natijasida odamsimon maymunlarning harakatlanish darajasi cheklanib qolgan. Dumg'aza suyaklari birlashib harakatlanmaydigan holga o'tgan. Bu esa tug'ishni bir muncha qiyinlashtirgan bo'lsa-da, tik yurishga o'tish odamsimon maymunlarda uzoqdan havf- hatarni ko'ra bilish, qurolushlashga xizmat qiluvchi qo'llarining ozod bo'lishiga imkon yaratgan. Shu sababli ham Ch. Darvin va F. Englis tik yurish maymunlarni odamga aylanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, deb hisoblaganlar.

Odam shakllana boshlashi jarayonida uning qo'li dastlab yaxshi rivojlanmagan bo'lib, faqat oddiy harakatlarni bajargan xolos.

Mutatsion o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish tufayli mehnat operatsiyalari uchun foydali bo'lgan qo'llari o'zgargan individlar saqlana borgan. Dastlabki odamsimon maymunlar tayyor narsalardan qurol sifatida foydalanibgina qolmay, balki ularning o'zlari tayyorlay boshlagunlaricha million yillar kerak bo'lgan. Mehnat qurollarini yasash odam qo'lini tobora maymun qo'lidan farq qilishga olib kelgan va odamning tashqi muhitga bo'lgan tobeligini yengillashtirgan. Qisqacha qilib aytganda odamni mehnat yaratgan.

Maymunnig odamga aylanish jarayonida jamoa bo'lib yashash ham muhim ahamiyar kasb etgan. Har qanday qurolga ega bo'lgan ayrim individ yirtqich hayvonlar hujumiga bardosh bera olmas edi. Shu sababli eng qadimgi va qadimgi odamlar jamoa bo'lib yashay boshlaganlar. Shu yo'sunda ular yirtqich hayvonlardan himoyalanganlar, ov qilganlar, yosh bolalarni tarbiyalaganlar. Jamoaning kattalari yosh a'zolari qurol

yasashga, ov qilish usullariga, olovni saqlashga, yemishli o'simlik va hayvonlarni qidirib topishga o'rgatganlar.

Mehnat jarayonining rivojlanishi bilan o'zaro ko'maklashish foydali ekanligi tobora oydinlasha borgan. Tabiatni bilish bo'yicha to'plangan tajriba avloddan-avlodga berilib, takomillashib borgan. Jamoa bo'lib yashash odamlarni bir-biri bilan tovush, imo-ishora va mimika orqali munosabatda bo'lish imkonini bergan. Ajdodlarimizning dastlabki so'zlari mehnat operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan. Bora-bora maymunlarning rivojlanmagan hiqildog'I va og'iz apparati irsiy o'zgaruvchanlik, tabiiy tanlanish natijasida odamning nutq organiga aylangan.

Yuksak hayvonlardan farqli ravishda odamda ikkinchi signal sistemasi rivojlangan. Odam tashqi signallarni so'z orqali qabul qiladi. Bu odam va hayvonlar oliy nerv faoliyatining sifat jihatdan farq qiluvchi belgisidir. Nutq, birgalikda mehnat qilish tufayli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi kuchaydi, ijtimoiy munosabatlar rivojlandi. Maymunni odamga aylanish jarayonida olovdan foydalanib, pishirilgan ovqatni iste'mol qilish ham muhim rol o'ynagan. Ovchilik bilan shug'ullanish, baliq ovlash faqat o'simliklar bilan emas, balki aralash ovqatlanishga ham imkon bergan. Bu esa o'z-o'zidan ichaklarning qisqarishiga sababchi bo'lgan. Olovda pishirilgan oziqni ming yillar mobaynida iste'mol qilish bora-bora chaynash apparatiga bo'lgan og'irlikni yengillashtirgan. Oqibatda maymunlarning baquvvat chaynash muskullari birikadigan tepa suyagining qirradi o'zining biologik ahamiyatini yo'qotgan.

Olovdan foydalanish ajdodlarimizga sovuqdan va yirtqich hayvonlardan himoyalashiga va sovuq o'liklarga tarqalishiga imkon yaratgan. Natijada ajdodlarimiz tabiatda o'sgan oziq bo'ladigan o'simliklarni yig'ish, ov qilish bilan cheklanibgina qolmay, balki ibtidoiy chorvachilik hamda dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlagan. Bosh miyaning, tafakkurning ruvojanishi mehnat va nutqning takomillashuviga olib kelgan.

Xulosa qilib ayrganda tik yurishga o'tish, qo'lni ozod bo'lishi mehnat qurollarini yasash, jamoa bo'lib yashash, har xil ovqatlarni iste'mol qilish, olovdan foydalanish, ikkinchi signal sistemasining rivojlanishi maymunni odamga aylanish jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Odamning tarixiy rivojlanishiga oid paleontologik materiallar uning evolutsiyasida to'rt bosqich – odamning boshlang'ich ajdodlari, eng qadimgi odamlar, qadimgi odamlar, hozirgi qiyofadagi odamlar bo'lganligini ko'rsatadi.

1.Odamning boshlang'ich ajdodlari. Bundan taxminan 25 mln yil muqaddam yuksak darajada rivojlangan tor burunli maymunlar driopitiklar yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish tufayli ikki tarmoqqa – hozirgi odamsimon maymunlarga va odamlarning dastlabki ajdodlariga ajralganlar. Bir tarmoq vakillari driopitiklar ko'proq daraxtlarda hayot kechirishga moslashgan. Ularning kelgusi rivojlanishidan

gorilla, shimpanze, orangutanlar kelib chiqqan. Keyinchalik ikkinchi tarmoqdan ramapitiklar paydo bo'lib, ularning jag'lari, tishlari Hindistonning shimolida topilgan. Ular taxminan 12 – 14 mln yil ilgari yashagan. Ranapitiklarning tashqi qiyofasi hozirgi odamsimon maymunlarga nisbatan odamga yaqin bo'lgan.

Odamsimon maymunlarning odamga aylanish jarayoninig boshlanishini isbotlovchi dalil avstralopitiklardir. Afrika o'rmonlarining shimolga surilishi va cho'l savannalarining paydo bo'lishi bilan odamsimon maymunlarning ba'zi hillari o'rmondan ochiq yerlarda yashashga o'tganlar.

O'sha davrlarda ochiq yerlarda yirik yirtqich hayvonlar – arslon, qoplon, darranda tishli yo'lbars ko'p edi. Sharoitning keskin o'zgarishi tufayli driopitiklarning ba'zi hillari ikki oyoqlab yurishga o'tganlar. Oqibatda janubiy “maymunlar” avstralopitiklar paydo bo'lgan. Avstralopitiklarning shakllanishi 9-5 mln yil ilgari ro'y bergan. Bosh miya unchalik rivojlanmagan bo'lsa-da, ularda ikki oyoqlab yurish, tayyor tayoqlar, toshlar, yirik hayvon suyaklaridan qurol sifatida foydalanish imkonini bergan.

Ular o'rmon dasht, ochiq yerlarda yashagan. Bo'yi 120-140 sm bo'lib, tanasining massasi 36-55 kl, kalla suyagining hajmi 500-600 sm bo'lgan. Avstralopitiklar tos suyagining tuzilishi ikki oyoqlab harakatlanganligidan dalolat beradi.

Avstralopitiklarning suyak qoldiqlari Keniyaning Rudolf ko'li atrofidan 5,5 mln yoshda bo'lgan yer qatlamlaridan topilgan. Avstralopitiklarning ba'zilar tabiatdagi qurollarni yasashga o'tganlar. Ular yasagan qurollari 2,6 mln yoshda bo'lgan yer qatlamlaridan topilgan. Bunday qurollar daraxt va hayvon shoxlari, suyaklari, toshlardan yasalgan. Avstralopitiklarning bir turi rivojlanib, dastlabki odamni hosil qilgan. 1960-1970 yillarda Sharqiy Afrikaning 3-2 mln yoshdagi yer qatlamlarida xomo xabilis skeletlari, kalla, jag' suyaklari bilan toshdan yasalgan qurollar topilgan. Shu sababli ular “uquvli odam” deb atalgan. Bosh miyasining hajmi 650-680 sm bo'lgan. U avstralopitik miyasidan 150sm ortiq. Bo'yi ularga qaraganda bir muncha baland 135-150 sm dir. Ular tayyor tosh, yog'och qurollar yordamida yirik hayvonlarni o'ldirganlar, o'simliklarni tuproq ostidagi piyozlari, tugunaklari, ildizlarini kovlaganlar. Olovdan foydalanishni bilganlar hamda yirik toshlardan o'zlari uchun kulba yasaganlar.

2.Eng qadimgi odamlar. Arxantropalar – qadimgi odamsimon maymunlarning odamga aylanishi bir qancha oraliq mavjudodlar – maymun va odamning belgilarini o'zida mujassamlashtirgan maymun odamlar orqali amalga oshgan.

1891 yilda gollandiya olimi Dyubya Yava orolidan maymun odam pitekanthropning suyak qoldiqlarini topgan. U oldinga biroz egilib ikki oyoqda yurgan. Bo'yi 170 sm ga yaqin, miyasining hajmi 900-1100 sm , peshonasi juda qiya, jag'I oldinga bo'rtib chiqqan. U taxminan 1,5-1,9 mln yil oldin yashagan. Petikanthropalar toshdan, suyakdan qurollar yasagan, olovdan foydalanishni bilgan va ibtidoiy jamoa bo'lib, yashagan, lekin turar joyi bo'lmagan. Petikanthropdan ancha keyin yashagan sinantrop hitoy

odamining suyak qoldiqlari 1927-1937 yillarda Pekin atrofidagi g'ordan topilgan. U 500-300 ming yil oldin yashagan. Sinantrop tashqi ko'rinishidan pitikantropga o'xshagan. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi rivojlanmagan. Miyasining hajmi 850-1220 sm bo'lgan. Sinantroplar olov yoqishni, uni saqlashni bilganlar. Bo'yi 150-160 sm bo'lgan.

1907 yilda Germaniyaning Geydelberg shahri yaqinida iyagi yo'q katta pastki jag' topilgan, lekin uning tishlari hozirgi odamning tishlariga o'xshashdir.

Petikantrop, sinantrop, geydelberg odami ko'p jihatdan umumiy belgilarga ega. Pehsona rivojlanmagan, pastki jag' yirik, oldinga bo'rtib chiqqan. Ularning bosh miyasi har qanday odamsimon maymunlikiga nisbatan rivojlangan. Bosh miya yarim sharlarining chap bo'lmasi rivojlangan bo'lib, bu o'ng qo'lni ko'p ishlatganligidan dalolat beradi. Eng qadimgi odamlar o'simlik o'ziqlaridan foydalanishdan tashqari ovchilik bilan shug'ullangan. Eng qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari bilan mayda kemiruvchilar, kiyiklar, ayiqlar, yovvoyi otlar va qo'tos suyaklarini uchrashligi bundan dalolat beradi. Ular olovdan foydalanishni bilganlar. Bu ovqatning tezroq hazm bo'lishiga, yirtqich hayvonlardan, sovuqdan himoya qilish, tarqalish arealini kengaytirishga imkon bergan. Iptidoiy tarzda fikrlash, olovdan foydalanish va qurol yasash eng qadimgi odamlarga yashash uchun kurashda ko'pgina afzalliklar bergan. Mutatsion o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish eng qadimgi odamlar orasidan yaxshi fikrlay, gapira oladigan, qurollar yasaydiganlarini saqlab borgan. Bunday belgilarda ega bo'lmaganlar esa qirilib ketgan.

Arxantroplar o'lgandan keyin yaqinlarini ko'maganlar, go'rlarni esa har xil hayvon shoxlari, tishlari bilan bezaganlar.

